

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**XORIJIY MAMLAKATLAR IQTISODIYOTI VA
MAMLAKATSHUNOSLIK FAKULTETI**

**“MDH, Yaqin va O`rta Sharq mintaqasi
iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi” kafedrası**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MDH MAMLAKATLARIDA QISHLOQ XO`JALIGI
RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI
(Rossiya Federatsiyasi misolida)**

Bajardi: Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik (MDH mamlakatlari bo`yicha) ta`lim yo`nalishi 4-kurs talabasi Alimov Akbar Alimovich

Ilmiy rahbar: “MDH, Yaqin va O`rta Sharq mintaqasi iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi” kafedrası kat. o`q. Hasanova J.N.

TOHIKEHT – 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
 I BOB. QISHLOQ XO`JALIGI RIVOJLANISHINI O`RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	 8
1.1. Qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlari.....	8
1.2. Qishloq xo`jaligining davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati...	14
 II BOB. ROSSIYA FEDERATSIYASIDA QISHLOQ XO`JALIGI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	 27
2.1. Rossiya Federatsiyasida qishloq xo`jaligi rivojlanishi yo`nalishlari...	27
2.2. Rossiya Federatsiyasida agrar islohotlarning o`ziga xos jihatlari...	40
 XULOSA.....	 49
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	54
ILOVALAR	59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha mamlakatlari iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i muhim o'rin egallaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni esa xom ashyo bilan ta'minlash, aynan ushbu soha zimmasida ekanligini inobatga olsak, uning respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida naqadar muhim o'rin tutishi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, yurtboshimiz rahnamoligida istiqbolning dastlabki yillaridanoq qishloq xo'jaligida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyoning qulay hududida joylashgan bo'lib, qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish uchun yetarli imkoniyat va salohiyatga ega mamlakat hisoblanadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Ayni paytda biz qishloq xo'jaligi sohasida birinchi navbatda tuproq unumdorligini oshirish choralarini ko'rish, barcha agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida bajarish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy qilish, seleksiya va urug'chilikni yanada rivojlantirish, mehnatni tashkil etish va rag'batlantirish bilan bog'liq, hali-beri ishga solinmagan katta imkoniyatlar mavjudligini ham e'tirof etishimiz lozim"¹.

Xususan, xo'jalik yuritishning samarali, taraqqiy etgan davlatlar tajribasida o'zini har tomonlama oqlagan fermerlik harakatiga o'tilishi soha rivojida yangi davrni boshlab berdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekiston Fermerlari kengashi tashkil etilgani respublikamiz qishloq xo'jaligi sohasi hamda qayta ishlash sanoati tadbirkorlarining istak va hohishlarini ifodalovchi muhim voqea bo'ldi. Chunki, bu kengash, eng avvalo, bozor munosabatlaridan kelib chiqib, jamoatchilik faolligiga tayangan holda ishlaydi. Bu esa, dehqonu fermerlarning istiqboldagi rejalarini qayta ishlash sanoati hamkorligi bilan umumlashtiradi, soha taraqqiyotida yangi davrni boshlab beradi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi korxonalari mazkur kengashning taklif va tavsiyalariga asoslangan holda,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2012-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. "Xalq so'zi", 2012, 20-yanvar.

o`zlarining yaqin va uzoq muddatga mo`ljallangan aniq ishlab chiqarish rejalari, eksport-import amallari ko`lamini ham belgilab olish imkoniyatiga ega bo`lishadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qishloq xo`jaligi sohasini tubdan isloh qilish borasida keng miqyosdagi ishlar qilindi. Jumladan, paxta ekin maydonlari sekin-asta qisqartirilishi, o`rniga g`alla, meva-sabzavot, poliz, kartoshka kabi oziqa ekinlari ekilishi tufayli respublikamizda oziq-ovqat taqchilligiga barham berildi. Natijada, O`zbekiston o`zini-o`zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta`minlay oladigan davlatlardan biriga aylandi. Shu hisobdan har yili respublikamizda ichki iste`mol dan tashqari millionlab tonna meva-sabzavot, poliz va uzum mahsulotlari, ehtiyojdan anchagina ko`p g`alla yetishtirilmoqda. Birgina 2012-yilning o`zida mamlakatimizda 3,460 million tonna paxta, 7,5 million tonna g`alla, ikki million tonnadan ziyod kartoshka, to`qqiz million tonnadan ziyod meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirild².

Biroq, qishloq xo`jaligining barcha jabhalarida tabiiy ravishda raqobat muhiti va o`sish jarayoni vujudga kelganiga qaramay, mahsulot sotish tizimidagi mavjud muammolar tufayli, meva-sabzavot va boshqa mahsulotlarning sezilarli qismi iste`molchiga yetib bormayapti. Shu sababli ham, respublikada meva-sabzavot yetishtirish, uni qayta ishlash, go`sh va sut mahsulotlarini iste`molchiga o`z vaqtida yetkazib berish kabi vazifalarni zamonaviy marketing asoslarida tashkil etadigan tizimga zaruriyat mavjud edi. Xuddi shu nuqtai nazardan olib qaraganda, qayta ishlash sanoati bilan savdo tashkilotlari, kooperativlar bilan dehqon va fermer xo`jaliklarining o`zaro iqtisodiy, huquqiy munosabatlarini takomillashtiradigan va mustahkamlaydigan tizim sifatida fermerlar kengashi tashkil etilganligi ayni muddao bo`ldi.

Qishloq xo`jaligi har bir mamlakat uchun strategik ahamiyat kasb etib, uning asosiy vazifasi mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo`lgan ehtiyojini qondirishdir. Aholi iste`mol tovarlariga bo`lgan talabining deyarli $\frac{3}{4}$ qismi qishloq xo`jaligi mahsulotlari hisobidan qondiriladi. Shu hisobdan, bu sohani rivojlantirishda jahon mamlakatlari orttirgan tajribalardan samarali foydalanish hozirgi kunning dolzarb

² "O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi" tahliliy jurnali. 1/2013, 15-bet

masalalaridan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda, MDH mamlakatlari lokomativi hisoblanmish Rossiya Federatsiyasi qishloq xo'jaligini hamda shu soha rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini o'rganish, tahlil qilish va O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishda bu mamlakat tajribalaridan foydalanish ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi va ahamiyatini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganligi. Qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va roli, uning ijtimoiy masalalarni hal etishdagi ahamiyati O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimovning bir qator asar va ma'ruzalarida keng yoritilgan.

Qishloq xo'jaligini milliy iqtisodiyotiyotlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni, shuningdek globallashuv sharoitida mazkur sohaning rivojlanishi xorijlik iqtisodchi-olimlar Yu. Svinen, K.Pakus, N.Glozaveniy, A.Gordeyev, G.Sdasyuk, N.Kovalenko, A. Tkach va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan³.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish muammolari bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan A .Abdug'aniev, B.T. Salimov, O.Zokirov, A.Pardaev, A.Ismoilov, O.Murtazoevlarning ilmiy ishlarida atroflicha tadqiq qilingan.

Tadqiqot obekti. Tadqiqot obekti sifatida Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib qishloq xo'jaligi sohasidagi muammolar majmui xizmat qildi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi globallashuv sharoitida Rossiya Federatsiyasi qishloq xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini, ularni rivojlantirish omillari va shart-sharoitlarini, rivojlanishning zamonaviy

³ Свинен Ю. Пакус К. "Аграрные преобразования в странах с переходной экономикой". Вопросы экономики. 2001. №8 102-118 ст.; Глазовений Н.Ф. Гордеев А.В. Сдасюк Г.В. "Устойчивое развитие сельского хозяйства и сельских территорий" "КМК"-М.:2005-615 ст.; Экономика сельского хозяйства. Учебник, под.ред. Коваленко. Н.Я.М.:Юркнига, 2004-392 ст.; Коваленко С.Б. Козенко З.Н. "Сельскохозяйственная кредитная кооперация" - М.: "Финансы и статистика" - 2005 -446 ст.; Ткач А.В. "Сельскохозяйственная кооперация". "Дашновик" - М.: 2006-203 ст.

tendensiyalarini aniqlash hamda ushbu sohada Rossiya Federatsiya tajribasidan O'zbekistonda foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari quyidagi asosiy masalalarga qaratilgan:

- qishloq xo'jaligining o'rni va ahamiyatini nazariy jihatdan o'rganish;
- qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zaruriyatini yoritib berish;
- globallashuv sharoitida Rossiya Federatsiyada qishloq xo'jaligining rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;
- Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbollari baho berish;

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Bitiruv malakaviy ishida qiyosiy va omilli tahlil, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, iqtisodiy-statistik va boshqa usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Rossiya Federatsiyasi statistika qo'mitasi hamda mamlakatimiz va xorijiy adabiyotlar, jurnallar, internet tizimidagi ma'lumotlar va turli statistik manbalardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jahon iqtisodiyotining globallashuv sharoitida qishloq xo'jaligining milliy iqtisodiyotlar rivojlanishida tutgan o'rni va roli nazariy jihatdan o'rganilgan;
- turli iqtisodiy qarashlar va uslubiy yondashuvlarni tahlil qilish asosida qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi naqadar ahamiyatli ekanligi yoritib berilgan;
- Globallashuv sharoitida Rossiya Federatsiyada qishloq xo'jaligining rivojlanish tendensiyalarini aniqlangan;
- Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlari va davlat tomonidan ishlab chiqilgan istiqbol rejalariga baho berish asosida mavjud muammolar aniqlangan va ularning hal etish yuzasidan takliflar tayyorlangan;

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, kelajakda qishloq xo'jaligi sohasi istiqbollarini ishlab chiqishda, uni yanada rivojlantirishda foydalanish mumkin bo'ladi. Ishdagi amaliy tavsiyalar va takliflar Respublikada qishloq xo'jaligi faoliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Tadqiqot ishining tarkibi uning maqsadi va vazifalariga muvofiq kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, muammoning ilmiy o'rganilganlik darajasi va maqsad-vazifalari aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi hamda ahamiyati yoritilgan.

Ishning birinchi bobida qishloq xo'jaligining nazariy jihatlarini, uning o'ziga xos xususiyatlari, shakllari hamda milliy iqtisodiyotdagi o'rni va qishloq xo'jaligi sohasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zaruriyatining sabablari tahlil qilingan.

Ikkinchi bobda Globallashuv sharoitida Rossiyada qishloq xo'jaligi rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilingan. Rossiya Federatsiyasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatlari va davlat tomonidan ishlab chiqilgan istiqbol rejalariga baho berish asosida mavjud muammolar aniqlangan va ularning hal etish yuzasidan takliflar tayyorlangan.

Xulosa qismida tadqiqot natijalari asosiy xulosalar, tavsiya va takliflar shaklida umumlashtirilgan.

Ilovalarda O'zbekiston va Rossiya to'g'risida tadqiqot ishiga bog'liq ba'zi jadvallar ko'rsatilgan.

I BOB. QISHLOQ XO`JALIGI RIVOJLANISHINI O`RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI

1.1 Qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlari

Qishloq xo`jaligi moddiy ishlab chiqarishning asosiy va eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo`lib, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun xom-ashyoning asosiy qismini yetkazib beradi. Qishloq xo`jaligi asosan, ikkita yirik tarmoq – dehqonchilik va chorvachilikdan iborat. Bu ikki soha aholi uchun dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yetkazib beradi. Qishloq xo`jaligi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlaydigan bir qancha tarmoqlarni ham o`z ichiga oladi. Iqtisodiy jihatdan faol aholining taxminan yarmi, kamroq taraqqiy etgan mamlakatlarda esa ko`pincha 80-90 foizidan ortig`i qishloq xo`jaligida band. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko`rsatkich 10 foizni tashkil etadi. Qishloq aholisining ijtimoiy muammolari, joylashishi qishloq xo`jaligi bilan chambarchas bog`liqdir. Bir qancha mamlakatlarda o`rmon xo`jaligi ham qishloq xo`jaligi tarkibiga kiradi.

Qishloq xo`jaligi aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berish bilan bir qatorda, sanoat tarmoqlari (oziq-ovqat, omuxta em, to`qimachilik, dori-darmon, atir-upa sanoati va boshqalar)ni xom-ashyo, ot-ulov (yilqichilik, tuyachilik va hokazo) bilan ta`minlaydi. Dehqonchilik tarmoqlari (g`allachilik, paxtachilik, sabzavotchilik, mevachilik, uzumchilik va boshqalar) hamda chorvachilik tarmoqlari (qoramolchilik, cho`chqachilik, qo`ychilik, parrandachilik, pillachilik, baliqchilik kabilar) ni o`z ichiga oladi. Bu tarmoqlarni birgalikda rivojlantirish moddiy va mehnat resurslaridan to`g`ri foydalanish imkonini beradi.

Qishloq xo`jaligi ASM dagi eng muhim tarmoqlardan biri bo`lib, mamlakat aholisi uchun oziq-ovqat, qayta ishlash sanoati uchun xom-ashyo yetkazib beradi. Uning asosiy vazifasi mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo`lgan ehtiyojini qondirishdir. Aholi iste`mol tovarlariga bo`lgan talabining deyarli $\frac{3}{4}$ qismi qishloq

xo'jaligi mahsulotlari hisobidan qondiriladi. Qishloq xo'jaligi sanoatga xom-ashyo yetkazib beruvchi yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining 50 % dan ko'prog'i xom-ashyo sifatida ishlatiladi. Bu soha sanoatnig yengil, oziq-ovqat, omuxta em va boshqa tarmoqlari uchun xom-ashyo yetkazib beradi.

O'z navbatida qishloq xo'jaligi sanoat tovarlarining yirik iste'molchisi hamdir. Sanoat qishloqni traktorlar, avtomobillar, mashinalar, asbob-uskunalar, yoqilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, omuxta em va boshqalar bilan ta'minlaydi. Sanoatda qilinadigan xarajatlarnig qariyb 40 foizi qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga sarflanadi. Shunday ekan, sanoatning ayrim tarmoqlari rivoji qishloq xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq va ayni vaqtda qishloq xo'jaligida tovar ishlab chiqaruvchilarining maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatishi ham sanoatning qay darajada rivojlanganligida namoyon bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish fondlari, ko'proq urug'lik, ozuqa, chorva mollari va shunga o'xshashlar hisobidan tashkil etilmoqda. Bu takror ishlab chiqarish maromining navbatdagi bosqichiga keng miqyosli ta'sir etib, uni kapitaltalab tarmoqqa aylantirdi, ishlab chiqarish potinsialini kengaytirdi va mehnat unumdorligi sur'atlarini o'stirdi. Ayni vaqtda qishloq xo'jaligi nisbatan mayda kapitallar qo'yiladigan soha bo'lib qoldi.

Ishlab chiqarish va kapitalning to'planish darajasi jihatidan qishloq xo'jaligi sanoatdan orqada qolmoqda. Bunga avvalo, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyati tufayli korxonalarning maqbul miqyosi ancha kichikligi sabab bo'lmoqda, holbuki ko'pgina mamlakatlarda yirik korxonalar bilan bir qatorda ko'p sonli dehqon-fermer xo'jaliklari saqlanib kelmoqda. Ular asosan fermer va uning oila a'zolari kuchi bilan yuritiladi. Biroq, xo'jalik mavqei yirik fermerlar qo'lida.

Xalq xo'jaligining har bir tarmog'ida ishlab chiqarish vositalaridan foydalaniladi, turli xil mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishchi-xizmatchilardan yetarlicha malaka talab qilinadi. Xuddi shunday qishloq xo'jaligining ham o'ziga

xos xususiyatlari borki, bu tarmoqda tadbirkorlik faoliyatini olib borishda ushbu xususiyatlarni hisobga olish zarur.

- Tarmoqda yer eng asosiy, almashtirib bo'lmaydigan ishlab chiqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli o'laroq yerdan foydalanilganda u eskirmaydi, balki o'z sifatini saqlab qoladi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer resurslari o'zining unumdorligi va joylashish o'rniga qarab farqlanadi. Bu esa differentsial renta I mavjudligini taqozo etadi: mahsulot bozorlariga yaqin joylarda joylashgan yer maydonlari egalari qo'shimcha daromad (foyda) olish imkoniyatiga ega.

- Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish juda katta maydonlarda olib boriladi. Bu, o'z navbatida, ishlab chiqarishni, aholi punktlarini joylashtirishda ma'lum talablarni keltirib chiqaradi, qishloq xo'jaligining moddiy – texnika bazasini shakllantirishda hisobga olishni talab qiladi.

- Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish turli tuproq-iqlim sharoitlarida olib borilib, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash, kimyolashtirish va tarmoq melioratsiyasi, qishloq xo'jalik ekinlarining navini tanlash hamda naslchilikda ham ushbu xususiyatni e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

- Bu tarmoqda olinadigan natijalar ham tuproq-iqlim sharoitiga bog'liq bo'lib, ushbu omilning sanoat ishlab chiqarishiga ta'siri yo'q.

Bundan tashqari, tabiiy-iqlim sharoiti qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining joylashuvi va ixtisoslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayrim qishloq xo'jaligi ekinlarini faqatgina muayyan sharoitlarda yetishtirish mumkin. Ob-havoning qulay yoki noqulay kelishi ham qishloq xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish mavsumiy xarakterga ega. Bunda ayniqsa, kuzgi g'alla yetishtirishda ishlab chiqarish davri bilan ish vaqti o'rtasidagi sezilarli farqni ko'rish mumkin. Kuzgi g'allani tayyorlash va ekish davri avgust, sentyabr oylaridan boshlanib, hosil kelasi yilning iyul oyida yig'ishtirib olinadi.

Ushbu davr oralig'ida ish vaqtida bir necha marta uzilishlar bo'ladi: ekin maydonlarini tayyorlash, ekish, ekinlar parvarishi, hosilni yig'ishtirib olish va boshqalar. Ishlab chiqarish davri esa ekinlarning tabiiy o'sishi va rivojlanishi

sababli uzluksiz davom etadi. Mavsumiylik ishlab chiqarishni tashkil etishga, mehnat resurslari va texnikadan foydalanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, qishloq xo'jaligining mavsumiylik xarakteri qayta ishlash sanoatida ham aks etadi. Chunki, qishloq xo'jaligi xom-ashyosi yil davomida notekis taqsimlanadi.

- Qishloq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlarida, ayniqsa, dehqonchilikda mehnat sarfi bilan mahsulot olish o'rtasida vaqt jihatidan uzilish mavjud, ya'ni mablag' deyarli butun yil davomida sarflanadi, mahsulot esa ma'lum davrdagina olinadi. Shu munosabat bilan mehnatga haq to'lashda, ish haqi va moddiy rag'batlantirishni ishning sifati, ishlab chiqarishning pirovard natijasi bilan bog'lashda o'ziga xos muammolar yuzaga keladi. Bu muammolarni bartaraf etish yoki yumshatishning turli shakllari mavjud, xususan kooperativlar, ijarachilar, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish, shuningdek, davlat xo'jaligida mehnatni tashkil etish va unga haq to'lashning ilg'or usullarini joriy etish va shu kabilar.

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari keyinchalik ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositasi (urug'lik, em, organik o'g'itlar, yosh chorva mollariga ozuqa va boshqalar) sifatida ishlatiladi. Sanoatda esa xom-ashyo boshqa tarmoq korxonalaridan keltiriladi. Qishloq xo'jaligida texnologik jarayon biologik omillar va tirik organizmlarga tayansa, sanoatda kimyoviy, fizik va mexanik jarayonlar asosida amalga oshiriladi.

- Tarmoq yuqori fond sig'imiga ega bo'lib, aylanma kapital sekin aylanadi, investorlar uchun ushbu holat unchalik foydali bo'lmaganligi sababli bu tarmoqni rivojlashtirishda asosan davlatning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

- Ma'lumki, qishloq xo'jaligi texnikalari (traktorlar, mashinalar, kombaynlar va boshqalar) bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradi, mehnat predmetlari (o'simliklar) esa ma'lum bir joyda joylashgan bo'ladi. Sanoatda aksincha, mehnat predmetlari (xom-ashyo) ko'chib yursa, asbob-uskuna, mashina va stanoklar bir joyga o'rnatilgan.

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'p turlarini uzoq saqlash mumkin emas. Bu muammo qishloq xo'jaligi mahsulotlarning deyarli bir davrda pishib

yetilishi oqibatida yanada chuqurlashadi. Bu, o'z navbatida, yetishtirilgan mahsulotni tayyorlovchi, qayta ishlovchi tashkilotlarning bir me'yorda tinmasdan ishlashini, ayrim davrlarda esa juda katta quvvatlarning bo'lishini talab qiladi. Yilning qolgan davrlarida esa bu quvvatlarning nisbatan bo'sh qolishi kuzatiladi. Bu xolat qayta ishlash tarmoqlarining katta omborxonalari bo'lishini talab etadi. Bunday holat, o'z navbatida, mahsulotning tannarxiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- Ko'pchilik qishloq xo'jaligi korxonalari bir necha xil mahsulot ishlab chiqaradi. Dehqonchilik va chorva mahsulotlari aynan bitta xo'jalikda yetishtiriladi. Chunki, dehqonchilik chorva mollarini ozuqa bilan ta'minlasa, chorvadan olingan go'ng organik o'g'it sifatida xizmat qiladi.

- Ko'p sonli qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari bozorda raqobat muhitini shakllantiradi. Birgina tovar ishlab chiqaruvchining o'zi bozor bahosiga ta'sir ko'rsata olmaganligi sababli, tarmoqda yakka hukmronlik kuzatilmaydi.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tizimida yer islohotlari alohida ahamiyatga ega. Bu, eng avvalo, yer resurslarining agrar ishlab chiqarishda tutgan o'rni va roli bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqqan holda yer qishloq xo'jaligida faol ishlab chiqarish vositasiga aylanadi. U mehnat jarayonining zaruriy moddiy shart-sharoiti, ishlab chiqarishning eng muhim omili sifatida maydonga chiqadi.

Yer har qanday davlat milliy boyligining muhim manbasi va moddiy ne'matlar ishlab chiqarishning tabiiy asosi hisoblanib, jamiyat mavjudligining asosiy shartidir.

Yer resurslaridan oqilona foydalanish mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Ishlab chiqarish sohalari nuqtai nazaridan yerning ahamiyati turlicha. Sanoatda u asosan korxona joylashuvi uchun makon vazifasini bajarsa, qishloq xo'jaligida yerning ahamiyati juda salmoqli. Yer qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun makongina bo'lib qolmay, balki bir paytning o'zida ham mehnat predmeti va vositasi, ham asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqli bir qator xususiyatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar qishloq xo'jaligi yuritish samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi:

- boshqa barcha ishlab chiqarish vositalari insonlar mehnati mahsuli hisoblansa, yer tabiat in'omidir. Boshqa asosiy vositalardan farqli o'laroq, yer tabiatning uzoq yillik tabiiy-tarixiy rivojlanishi mahsuli hisoblanadi. Yerni ishlab chiqarishga inson mehnati sarflanmaganligi tufayli uning qiymati mavjud emas. Shu sababli yerdan foydalanish jarayonida unga amortizatsiya ajratmalari ajratilmaydi va u mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir ko'rsatmaydi;

- yerni boshqa ishlab chiqarish vositalari singari texnik nuqtai nazardan mukammalroq ishlab chiqarish vositasiga almashtirib bo'lmaydi. Yer resurslari bo'lmasa, ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilib bo'lmaydi. Masalan, ko'plab ishlab chiqarish vositalari ilmiy-texnika taraqqiyoti natijasida sezilarli darajada o'zgargan. Tuproq yuzasiga ishlov beruvchi ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishi eng sodda motigalardan boshlanib hozirgi zamonaviy pluglarga o'zgarib kelgan. Boshqa ko'plab ishlab chiqarish vositalari doimiy joy bilan bog'liq bo'lmasa, yerni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib bo'lmaydi. Yer resurslaridan faqat u joylashgan joyda foydalanish mumkin, xolos;

- yer resurslari makonda cheklangan va uning yuzasini kengaytirish imkoniyati yo'q. Alohida mamlakatlar doirasida yer resurslari mamlakatlarning chegaralari bilan aniqlansa, umuman planetamiz miqyosida uning sathi quruqlik yuzasi bilan cheklangan. Umuman quruqlik yuzasi 149,1 mln km² ni yoki umumiy yer yuzasining 29,2 foizini tashkil etadi. Yer yuzasidagi jami quruqlikning qariyb 20 foizini cho'llar, 20 foizga yaqinini savannalar va chala cho'llar tashkil etadi. quruqlikning 30 foizga yaqinini o'rmonlar qoplab olgan bo'lsa, tog'lar jami quruqlikning qariyb 1/3 qismini egallab olgan. Dunyo bo'yicha qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar jami quruqlik maydonining 10 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi, xolos;

- alohida yer uchastkalari o'z unumdorligiga ko'ra bir xil emas. Ba'zi yer uchastkalari ozuqa moddalarining ko'pligi bilan ajralib tursa, boshqalari namlik

bilan yaxshiroq ta'minlangan, yana boshqalari esa umuman o'ziga xos tuproq tarkibiga ega. Buning natijasida bir birlik yer uchastkasi hisobiga bir xil xarajat va mehnat sarflansa ham olinadigan mahsulot hajmi turlicha bo'ladi. Albatta, inson mehnatining ta'sirida bu tafovut qisqarishi yoki aksincha, oshishi mumkin. Yerlardan noto'g'ri foydalanish pirovard natijada boshqa barcha ishlab chiqarish omillarining roli va ahamiyatini yo'qqa chiqarishi mumkin;

Bu kabi o'ziga xosliklarni, albatta, chuqur o'rganish va doimo hisobga olgan holda ishlab chiqarishni tashkil etish qishloq xo'jaligining samarali ishlashini ta'minlaydi. Shubhasiz, fan, texnika taraqqiyoti o'sgan borgan sari qishloq xo'jaligining bu xususiyatlari ta'siri nisbatan kamayib boradi, lekin butunlay yo'q bo'lib ketmaydi.

1.2 Qishloq xo'jaligining davlat tomonidan tartibga solish zaruriyati

Dunyodagi ko'plab mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishgach iqtisodiy poydevorini qishloq xo'jaligini tiklashdan va uni rivojlantirishdan boshlagan. Hozirgi kunda jahonning yuzdan ortiq rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi mavqeni egallaydi. Hatto ko'plab rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligining ulushi kam bo'lsa-da, mamlakat iqtisodiyotida agrar sektorga katta ahamiyat beriladi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari yaxshi rivojlangan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'i davlat tomonidan tegishli qonun-qoidalar asosida tartibga solib turilishi va qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligini markazlashgan rejalar asosida davlat tomonidan ma'muriy usullar orqali boshqarish tamoyillaridan voz kechib, bu sohaga erkin bozor munosabatlari kirib kelayotgan bir paytda davlatning agrar ishlab chiqarish munosabatlariga aralashuvi hayotiy zaruratga aylanadi.

Erkin bozor tarafdorlari agrar sohaga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarga (qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida sof raqobat imkoniyatlarining mavjudligi, agrar ishlab chiqarishga xos bo'lgan tabiiy – biotexnologik omillar dehqonlardan

mustaqil qarorlar qabul qilishni talab etishi va boshq.) tayanib, bu tarmoqda erkin bozor munosabatlari amal qilishi uchun qulay shart – sharoitlar mavjud, degan g'oyani ilgari suradilar. Ularning fikricha, bozorning o'z – o'zini tartibga sola olish xususiyati, agrar iqtisodiyotga davlat aralashuvini talab etmaydi va bunga zaruriyat ham yo'q. Mustaqil xo'jalik yuritish va tadbirkorlik erkinligi esa bozor sharoitida fermerlarning yuksak sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelishi kerak.

Ammo, ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribalari qishloq xo'jaliklarini davlatning faol aralashuvisiz rivojlantirib bo'lmashligini ko'rsatmoqda. Chunki, bozor sharoitida agrar soha davlat tomonidan qo'llab – quvvatlanmasdan turib, sohalararo raqobatga bardosh berolmaydi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash zaruratini dastavval qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda qaramoq maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi murakkab biotexnik texnologik hamda ijtimoiy – iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi. Unda tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi omillar bilan birgalikda yer, suv, o'simlik va chorva mollari organizm, yorug'lik, issiqlik, havo, tabiiy iqlim va geografik joylashuv kabi tabiiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayonida turli tavsifdagi ushbu omillar uyg'unlashib ketadi. Ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning serqirraligi va murakkab tizimdan iboratligi qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, ishlab chiqarish tabiiy omillarning bir qismini (ob – havo, tabiiy – iqlim sharoiti va h.k.) boshqarish dehqonlarning imkoniyatlar doirasidan tashqari bo'lib, ularni oldindan rejalashtirib yoki oldini olib bo'lmaydi. Ammo, bu omillarning qulay yoki noqulay sharoitlarda kelishi xo'jalikning yakuniy moliyaviy natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy iqlim sharoitiga (jonli organizmlar, jug'rofiy muhit, ob – havo va bosh.) bog'liqligi dehqonlar faoliyati rag'batlantirish va sug'urtalash kabi bir qator himoya vositalarni yaratishni talab qiladi.

Dehqon manfaati tomonidan yondashsak, yil davomida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tabiiy ofat va qurg'oqchilik tufayli bekorga sovurilishi mumkin. Bunday paytlarda uning ko'rgan zararini qisman bo'lsada qoplamaslik kelgusi yil hosiliga ham tahdid soladi. Ob – havoning noqulay kelishi nafaqat qishloq xo'jaligi tarmog'ida, balki butun mamlakat miqyosida ham qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Oziq – ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zaxiralari bo'lishi maqsadga muvofiq. Hosil mo'l bo'lgan yillarda davlat oziq – ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlashi va noqulay kelib, tanqislik vujudga kelgan yillari bu zahiralaridan talabni qondirish maqsadida foydalanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtda dunyoning bir qator ilg'or davlatlarida qo'llab kelinadi va o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy – iqlimiy sharoitlarga bog'liqligi bu tarmoqda baholar va daromadlarning barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qulay ob – havo sharoitida bozorga talabdan ortiqcha mahsulotning kirishi bahoning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatni ko'proq g'alla, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari bozorida kuzatish mumkin. Ba'zan baholarning bunday pasayishi mahsulot tannarxini qoplashga ham imkon bermasligi oqibatida dehqonlar katta zarar ko'radi. Tabiiyki, bunday sharoitlarda agrar sohada erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bo'lsa, ular xonavayron bo'lishi turgan gap. Yoki ikkinchi bir yili ob–havoning noqulay kelishi (qurg'oqchilik, sel, jala va hokazo) hosilning keskin kamayib ketishiga va natijada narxlarning haddan tashqari qimmatlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday hollarda dehqonlar hosilning kamayib ketishidan zarar ko'rsalar, iste'molchilar narxlarning balandligidan aziyat chekadilar. Ko'rinib turibdiki, har ikkala holda ham dehqon ko'proq zarar ko'radi va bu holat qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab –quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida yuzaga chiqadi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari biologik jarayonlar bilan bog'liqligi tufayli tez buziluvchan bo'ladi. Ularni uzoq muddat saqlash yoki olis

masofalarga tashish imkoniyatlari ancha chegaralangan. Qishloq xo'jaligi korxonalaridan farqli ravishda sanoat, savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalari o'z mahsulotlariga baho belgilashda ancha qulay mavqega ega. Chunki, iste'molchi so'rayotgan narx qoniqtirmasa, ularni toki bozorda qulay vaziyat vujudga kelgunga qadar tovarlarini sotmay saqlab turishlari mumkin. Qishloq xo'jaligi korxonalari esa sabzavot, meva yoki sut kabi tez buziluvchan mahsulotlarni bozorda qulay vaziyat kelishini kutib, uzoq vaqt ushlab tura olmaydilar. Bu xil mahsulotlar ma'lum muddat o'tgandan so'ng o'zining iste'mol qiymatini yo'qotishi mumkinligi sababli fermerlar bozorda tashkil topgan narxlar darajasi bilan qanoatlanishga majbur bo'ladilar.

Ikkinchi tomondan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalar erkin bozor hukm surib turgan sharoitda ular hech qachon o'zaro kelishib, mahsulotlariga yuqori narx belgilay olmaydilar, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida nisbatan ideal raqobat hukm suradi. Odatda, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning o'zgarishi unchalik katta bo'lmaydi. Boshqacha qilib aytganda, unga bo'lgan talab elastiklikka ega emas (yoki juda past elastiklikka ega).

Aksincha, qishloq xo'jaligiga moddiy – texnika resurslari yetkazib beruvchi hamda ularga turli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar hududlar miqyosida kamchilikni tashkil etib, ba'zan monopol mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalari xarid qiladigan sanoat mahsulotlari (texnika, mineral o'g'it, yoqilg'i va h.k.) narxi ko'p hollarda tez sur'atlar bilan o'sadi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlari baholari bilan bu tarmoq uchun zarur bo'lgan sanoat tovarlari yoki xizmatlar baholari o'rtasida yirik nomunosiblik (baholar dispariteti) vujudga keladi. Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaliklari mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samarasini pasaytiradi yoki umuman, zararli qilib qo'yadi. Bunday holat hech bir mamlakat manfaatiga mos tushmaydi. Bunday vaziyatda davlat qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun noqulay bo'lgan texnika ta'minoti hamda xizmat

ko'rsatuvchi korxonalarning monopol mavqeini cheklash choralarini ko'rishga majbur bo'ladi.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash zaruriyati bu tarmoqda kapital aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi.

Ma'lumki, sanoat, savdo, moliya bozorlari kabi bir qator tarmoqlarda kapital aylanishi qishloq xo'jaligidagiga nisbatan bir necha marta yuqoridir. Kapital qancha tez aylansa, shunchalik ko'p foyda keltirishi tufayli qishloq xo'jaligida kapitalning sekin aylanishi bu tarmoqqa investitsiya imkoniyatlarini keskin chegaralaydi.

Ammo, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, fan – texnika yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekologik vaziyatni barqaror ushlab turish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun yirik kapital mablag'lar talab etiladiki, bu tadbirlarni yolg'iz qishloq xo'jaligi korxonalarning mablag'lari hisobdan amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun davlat budjeti hisobidan maxsus mablag'lar ajratilishi maqsadga muvofiq. Va nihoyat, fermer xo'jaliklarining ijtimoiy rivojlanishi, ya'ni ular uchun yo'llar barpo etish, gaz, suv, elektr ta'minoti, ijtimoiy – madaniy obyektlar qurish kabi umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan muammolar mavjudki, bu muammolarni davlat homiyligisiz yechib bo'lmaydi.

Qishloq xo'jaligida davlat mulki saqlanib qolishining maqsadga muvofiqligi hamda hal etilishi lozim bo'lgan muammolar va soha sifatidagi o'rni:

- urug'chilik, naslchilik, ko'chatchilik, yangi sermahsul, tezpishar navlarni yaratish, ularni rivojlantirish muammolari;
- irrigatsiya-melioratsiya ishlarini rivojlantirish, yerning meliorativ holatini yaxshilash, yer erroziyasiga va sho'rlanishiga qarshi kurash muammolari;
- iqtisodiyotda erkin bozor munosabatlarini yaratish va ularni chuqurlashtirish bo'yicha tajriba eksperimental uchastkalarini tashkil etish va rivojlantirish muammolari;

- yangi, texnika, texnologiyalarni, agrotexnika tadbirlarini takomillashtirish, dehqonchilikda ilgʻor texnologiyalarni yaratish va uni ishlab chiqarishga tadbir etish muammolari va boshqalar.

Milliy agrar iqtisodiyotining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlatning qishloq xoʻjaligini tartibga solish va qoʻllab - quvatlashdagi asosiy vazifalari sifatida quydagilarni belgilash mumkin:

1. Huquqiy tartibga solish vazifasi – davlat agrar iqtisodiyot barqaror rivojlanishini va har bir xoʻjalik yurituvchi subyekt teng sharoitlarda faoliyat yuritishini taʼminlashga imkon beruvchi meʼyorlar hamda qonunlarni qabul qilish orqali, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning huquqiy asoslarini yaratishni nazarda tutadi.

2. Barqarorlashtirish vazifasi – agrar iqtisodiyotda inqirozli holatlarni bartarab etish, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishning pasayishiga yoʻl qoʻymaslik va agrosanoat majmui tarkibining mutanosibligini taʼminlash bilan bogʻliq.

3. Tartibga solish vazifasi – xoʻjalik yurituvchi subyektlarning samarali faoliyat yuritishlarini taʼminlash maqsadida bozor tuzilmalari bilan davlat boshqaruvining oʻzaro manfaatlilik hamda uygʻunligini shakllantirishdan iborat.

4. Ragʻbatlantirish vazifasi – milliy iqtisodiyot doirasida qishloq xoʻjaligida fan – texnika taraqqiyotini, xususiy tadbirkorlikni, adolatli raqobat kurashini yoki boshqa ustuvor yoʻnalishlarni ragʻbatlantirish va qoʻllab – quvvatlash choralarini ifodalaydi.

5. Taqsimlash vazifasi – ijtimoiy adolat va himoyalash vositasi sifatida daromatlarini qayta taqsimlash, shuningdek, ichki mahsulot tarkibini oʻzgartirish maqsadida resurslar taqsimotiga tuzatishlar kiritish bilan bogʻliq.

6. Ijtimoiy kafolatlash vazifasi – qishloq xoʻjaligida taʼminot va aholining nochor qatlamlarini himoyalashning samarali tizimini yaratish, ishlab chiqarish va taqsimotning ijtimoiy yoʻnaltirilganligini taʼminlash, taʼlim, sogʻliqni saqlash va madaniy tadbirlarga boʻlgan ehtiyojni qondirish bilan bogʻliq chora – tadbirlarni oʻz ichiga oladi.

7. Muhofaza qilish vazifasi – agrar ishlab chiqarishni salbiy xarakterdagi tashqi ta`sirlardan (masalan, atrof – muhit va b.) saqlash, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni tashqi eksportyorlardan yoki jahon bozoridagi kuchli raqobatdan himoyalash kabi vazifalardan iborat.

8. Nazorat etish vazifasi – qishloq xo`jaligida qonuniy – me`yoriy hujjatlar, hukumat qarorlari va davlat andozalarining bajarilishi ustidan nazorat o`rnatish bilan bog`liq.

9. Tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish vazifasi – xalqaro bozorlar qishloq xo`jaligi mahsulotlari eksportyorlarining manfaatlarini himoyalash, bojxona ta`riflari va soliqlar orqali eksportga yo`naltirilgan mahsulotlar yaratishni rag`bantlantirish, ular uchun qulay iqtisodiy muhit hosil qilish tadbirlaridan iborat.

10. Istiqbolni belgilash vazifasi – qishloq xo`jaligini istiqbolda rivojlantirishning ustivor yo`nalishlarini belgilash, barqaror agrar taraqqiyotining samarali variantlarini izchil amalga oshirishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayonida davlatning qishloq xo`jaligini qo`llab – quvvatlashdagi eng muhim vazifalaridan biri – tadbirkorlik tashabbusi va tanlov erkinligiga, mustaqil xo`jalik yuritish huquqi va o`z xususiy mulkiga ega bo`lgan bozor xo`jaligining subyekti - tadbirkorlarni shakllantirish hamda ularning sog`lom raqobat va teng xo`jalik yuritish sharoitlarida faoliyat ko`rsatishini ta`minlovchi huquqiy – me`yoriy asoslarini yaratishdir. Davlat tadbirkorlarning butun ijobiy va mehnat qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi hamda ular xo`jalikni boshqarish jarayonlarini to`siqsiz amalga oshirishlari uchun zarur bo`lgan barcha shart – sharoitlarni, ya`ni tadbirkorlik va tanlov erkinligini qonunan mustahkamlab qo`yishi kerak. Shu bilan birga davlat tegishli qonuniy hujjatlar orqali bozor sharoitida xo`jalik yuritish qoidalarini belgilaydi.

Davlatning yana bir muhim vazifasi qishloq xo`jaligi mahsulotlariga barqaror talab va taklifning shakllanishini qo`llab – quvvatlashdir. Qishloq xo`jaligi mahsulotlariga barqaror talabni shakllantirish uchun aholining daromatlarini o`stirish va qayta taqsimlash, iste`mol uchun zarur bo`lgan ba`zi mahsulotlarning baholarini tartibga solish kabi tadbirlar qo`llaniladi. Davlat

iste'moli uchun zarur bo'lgan hamda strategik ahamiyatga ega bir qator mahsulotlarga davlat buyurtmalarini shakllantirish orqali ham qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror talabni yuzaga keltirishga hissa qo'shadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror taklif hajmini qo'llab – quvvatlash bevosita xo'jaliklarda ishlab chiqarishni optimallashtirish, ularning moddiy – texnik salohiyatini oshirish, sohaga energiya va resurslarni tejash imkonini beruvchi ilg'or texnologiya hamda fan-texnika yutuqlarini joriy etish (baholar paritetini saqlash, soliq, moliya-kredit va sug'urta tizimi) orqali ishlab chiqarish – moliyaviy faoliyatda qulaylik hamda imtiyozlar yaratish orqali ta'minlanadi.

Davlatning uchunchi muhim vazifasi – qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishga yetaklovchi sog'lom raqobat muhitini shakllantirishdir. Buning uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorining ochiqqligini hamda adolatli raqobat muhitini yaratish, nosog'lom raqobat va monopoliyaga qarshi kurashning samarali vositalarini qo'llash choralari amalga oshiriladi.

Davlat qishloq xo'jaligi korxonalarining jahon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat bozorlarida teng huquqli subekt sifatida qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib bermog'i lozim. Buning uchun davlat:

- Qishloq xo'jaligi korxonalarining eksportga yo'naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlari yetishtirishga rag'batini oshirish;
- Mahaliy bozorlarda ularni tashqi eksportyorlar raqobatidan yetarli darajada himoyalash (proteksionizm) vositalarini ishga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning eng muhim vazifalaridan biri qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etishga ko'maklashishdir. Bu vazifani amalga oshirish dehqonlarga moddiy – texnik resurslar yetkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashuvchi xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalari va yaramarkalar, axborot – maslahat markazlari hamda dehqonlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash borasidagi vazifalari ma'lum bir tamoyillarga tayanib amalga oshiriladi. Bu tamoyillarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Qishloq xo'jaligining iqtisodiy mohiyatini, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda uning tutgan o'rnini va ahamiyatini ilmiy tushunish;

- Zaruriyat va yetarlilik darajasidagi proteksionizm siyosati;
- Qishloq xo'jaligini maqsadli – dasturiy tartibga solish;
- Davlat homiyligining doimiy kafolatlanishi;
- Qo'llab-quvvatlash tadbirlarining tabaqalangan holda qo'llanilishi;
- Davlat aralashuvining rag'batlantirivchi yo'nalishga egaligi;
- Davlat aralashuvining ijtimoiy yo'naltirilganligi.

Davlat o'zining qishloq xo'aligini tartibga solish va qo'llab – quvvatlashga oid vazifalarini turli shakl va usullarda amalga oshiradi. Tanlangan mezonning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

Davlatning agrar soha iqtisodiy jarayonlariga ta'siri darajasiga ko'ra, tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari mavjud. Davlatning qishloq xo'aligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi xo'jalik yurituvchi subyektlarini o'z tanlov erkiligidan kelib chiqib emas, balki davlat tomonida belgilangan qonuniy – me'yoriy qoidalar asosida boshqaruv qarorlari qabul qilishga majbur etadi. Bunga soliq qonunchiligi, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bo'yicha yo'riqnomalar va boshqalar misol bo'ladi.

Bilvosita usullar yordamida davlatning qishloq xo'jaligiga ta'siri takror ishlab chiqarishning makroiqtisodiy nisbatlarini ta'minlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini iqtisodiy dastaklar yordamida tartibga solishni ko'zda tutadi. Bunda davlat iqtisodiy subyektlar tomonidan qarorlar qabul qilish jarayoniga to'g'ridan – to'g'ri aralashmaydi, balki bu qarorlarni davlatning iqtisodiy siyosatiga mos bo'lishini rag'batlantiradi.

Tashkiliy – institutsional mezonga ko`ra davlatni qishloq xo`jaligini tartibga solishning ma`muriy va iqtisodiy usullari farq qiladi. Ma`muriy usullar xo`jalik yurituvchi subyektlar uchun qonuniy va me`yoriy shart – sharoitlarni vujudga keltirish bilan bog`liq huquqiy infratizimni shakllantirishga oid chora – tadbirlar majmuasini o`z ichiga oladi. Uning vazifasi tadbirkorlik faoliyati uchun barqaror huquqiy sharoitlar yaratish, raqobat muhitini muhofaza qilish kabi tadbirlardan iborat.

Qishloq xo`jaligini davlat tomonidan tartibga solish ma`muriy usullarning o`ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ular davlat hokimiyatining qudrati va salohiyatiga tayanadi;
- ularni amalga oshirish bilan bog`liq qo`shimcha moddiy rag`batlantiruvchi choralar yaratishni shart qilib qo`ymaydi;
- ta`qiqlash, ruxsat berish va majburlash tadbirlarini (kvotalash, litsenziya berish, me`yoriy normalarni belgilash va h. k.) o`z ichiga oladi.

Ma`muriy boshqaruv o`z tabiatiga ko`ra, bozorga xos tartibga solish harakatiga to`siqlik qiladi. Biroq rivojlangan bozor sharoitida ham boshqarishning ma`muriy usullari o`z ahamiyatini saqlab qoladi va zarur bo`lganda ulardan foydalaniladi. Xususan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan hamma mamlakatlarda ma`muriy usullar vositasida monopoliyaga qarshi siyosat amalga oshiriladi.

Iqtisodiy usullar yordamida davlat bozor jarayonlarining rivojlanishini davlatning iqtisodiy siyosatiga mos yo`nalishga solish uchun ta`sir etish choralarini qo`llaydi. Iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning ma`muriy usullari bozor xo`jaligining o`z –o`zini boshqarish mexanizmiga qarshilik qilsa, iqtisodiy usullar ulardan faol foydalanishni rag`batlantiradi.

Iqtisodiyotni tartibga solish va qo`llab-quvvatlashning iqtisodiy usullariga quyidagilar kiradi:

- budget-soliq siyosati;
- pul-kredit siyosati;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish;
- iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash;

Budjet - soliq tizimi xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan bevosita tartibga solishning samarali dastaklaridan biri hisoblanadi. Davlat budjetining xarajatlar qismi orqali daromadlarni qayta taqsimlash, qishloq xo`jaligi sohasida fan – texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish va ilmiy tadqiqotlar olib borish, agrar iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga davlat investitsiyalarini yo`naltirish hamda qishloqda ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish mumkin bo`ladi.

Soliq tizimi orqali qishloq xo`jaligi korxonalari faoliyatini rag`batlantirish (soliq imtiyozlar va boshq.) amalga oshiriladi. Chunki, progressiv soliq tizimidan noto`g`ri foydalanish, ya`ni uning me`yorini haddan tashqari oshirib yuborish iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta`sir ko`rsatishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, yuqori unum bilan mehnat qilish va yuqori daromad olishga bo`lgan manfaatni, investitsiyalarga bo`lgan rag`batni yo`qqa chiqishi bilan izohlanadi.

Pul – kredit tizimi davlatning qishloq xo`jaligiga bilvosita ta`sir ko`rsatish usullaridan biridir. Pul – kredit tizimi orqali:

- maqsadli kreditlar berish;
- kredit berishning yuqori chegaralarini belgilash;
- bank foizlarining darajasi ustidan bevosita nazorat o`rnatish;
- kreditlar bo`yicha foiz stavkalarini tartibga solish;
- tijorat banklarini qayta moliyalash me`yorlarini tartibga solish kabi iqtisodiy rag`batlantirish choralari qo`llaniladi.

Iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash (prognozlash) orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga, xususan qishloq xo`jaligiga, bilvosita ta`sir ko`rsatadi va ular xususiy tarmoq subyektlari uchun tavsiya mazmuniga egadir. Davlat istiqbolni bashorat qilish orqali kelgusida ko`zda tutilgan vazifalarni samarali amalga oshirilishning optimal variantlarini izlasa, iqtisodiy dasturlar orqali ma`lum bir tarmoq, hudud yoki ustuvor vazifalarni rivojlantirish masalalarini hal etadi.

Davlat o`zining real hokimiyati kuchidan foydalangan holda qishloq xo`jaligini ma`muriy usullar yordamida tartibga solsa, iqtisodiy yoki institutsional

usullar yordamida ularni qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi. Erkin bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda davlatning ma'muriy usullar yordamida tartibga solish darajasi kamayib boradi. Ammo, uning ahamiyati saqlanib qoladi. Negaki, xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi daxlsizligini himoyalash monopoliyani cheklash, qonun ustuvorligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlab turish kabi muhim tadbirlarni faqatgina kuchli davlat hokimiyati va ma'muriy usullar orqaligini ta'minlash mumkin.

Shu bilan birga iqtisodiy va institutsional usullar orqali fermer xo'jaliklarini qo'llab – quvvatlash ko'proq ahamiyat kasb etib boraveradi.

Shu tariqa iqtisodiyotga davlat aralashuvi darajasi va davlat mulki o'lchamlarini o'zgartirish har bir davr va har bir mamlakat uchun iqtisodiy erkinlik va xo'jalik aralashuvi, butun ijtimoiy xo'jalikning mikro va makroiqtisodiy manfaatlari, xususiy va davlat tadbirkorligi o'rtasida ma'lum bir maqbul bo'lgan nisbatlarini ta'minlash borasida iqtisodiy tizimning ichki intilishlarini aks ettiradi. Quyidagi amaliy ahamiyatga ega bo'lgan omillar qishloq xo'jaligida davlat mulkining zaruriyat sifatida mavjud bo'lishini belgilab beradi:

- xususiy sektorning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan makroiqtisodiy shart-sharoitlarni yaratish, ya'ni an'anaviy tarzda xususiy kapital uchun qiziqish uyg'otmaydigan, tijorat jihatdan foydasiz bo'lgan, ammo milliy xo'jalik uchun takror ishlab chiqarishning umumiy shart-sharoitlarini belgilab beruvchi tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash;

- fan-texnika taraqqiyoti jarayonlarining jadallashuvini belgilab beruvchi va ushbu asosda mamlakatning jahon xo'jaligida raqobatbardoshligining mustahkamlanishini ta'min etuvchi ilm va kapital sig'imli qimmatga va tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgan loyihalarni amalga oshirish;

- ishchi o'rinlarini yaratish yoki saqlab qolish, mahsulotlarga nisbatan past narxlarni belgilash, ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish maqsadida qoloq hududlarni rivojlantirish;

- milliy va ekologik xavfsizlikni ta'minlash;

- shartnoma va kelishuvlarning amalga oshishi uchun shart-sharoitlar yaratish va davlat kafilligini berish.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida davlat mulki g'arb mamlakatlaridagi xo'jalik yuritishning aynan shu shakliga nisbatan birmuncha samaraliroqdir, bu holatni faqatgina davlat mulkining keskin qisqarishi, xarajatlarning o'sishi va ijtimoiy ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkinligi bilan izohlab bo'lmaydi. Bizningcha, hududlar o'rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish, yagona iqtisodiy makonni yaratish maqsadida milliy iqtisodiyotda davlat mulki ulushini ma'lum nisbatlarda saqlab qolish maqsadga muvofiqdir.

Davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab – quvvatlash tadbirlari ilmiy – amaliy jihatdan asoslangan hamda ijobiy natijalarni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsagina o'z samarasini beradi.

II BOB. ROSSIYA FEDERATSIYASIDA QISHLOQ XO`JALIGI RIVOJLANISHINING HOZIRGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

2.1. Rossiya Federatsiyasida qishloq xo`jaligi rivojlanishi yo`nalishlari

Rossiyada qishloq xo`jaligi tarixiy asosga ega bo`lib, agrar soha bo`yicha uzoq yillik tajribaga ega. Shunga qaramasdan, haligacha bu sohani rivojlantirishga to`squinlik qilayotgan hamda o`z yechimini kutib yotgan muammolar talaygina. Mamlakat ulkan hududiy imkoniyatga ega, lekin kichik qismidagina dehqonchilik va chorvachilik bilan shug`ullaniladi. Bunga sabab Rossiya zaminining katta qismida qishloq xo`jaligi uchun noqulay ob-havo sharoiti hukm suradi hamda hosilning nobud bo`lish riski juda yuqori.


Rossiya qishloq xo`jaligi ulushi YaIMda yildan-yilga ortib borishiga qaramasdan haligacha kichik ulushni tashkil etmoqda. 2011-yil YaIMda qishloq xo`jaligining ulushi 8%ni tashkil etdi. 2009-10 yillarda esa mos ravishda 5.49-5.55 % ulushni tashkil etgan edi. Shu o`rinda ta`kidlash joizki, Rossiya aholisining 27%i qishloq joylarda istiqomat qilishadi.

Rossiya ekin maydonlari 1980-yillarda 120 mln. g.dan ortiq yerni tashkil etardi. Lekin bu ko`rsatkich yildan-yilga qisqarib boraverdi. Bunga albatta aholi soni ortishi, qishloq xo`jaligi korxonalarining ko`payishi, bundan tashqari yerning meliorativ holatini buzilishi, ya`ni sho`rlanish darajasining oshishi ta`sir etib keldi.

Ekin maydonlarining hajmi 25 yil ichida 40% (49 mln g. atrofida)ga qisqardi, ya`ni 1980-yilgi 124,8 mln. g. maydondan 2005-yilda 75,8 mln. g. ekin maydoni qoldi. Bu O`zbekistonning umumiy yer maydonidan ham oshiqroq bo`lgan maydonga qisqartirildi degani. Bundan keyingi yillarda ekin maydonlari hajmida keskin o`zgarishlar kuzatilmadi (2.1-rasm).

Ta`kidlash joizki, ekin maydonlari hajmining ortishi yoki kamayishi qishloq xo`jaligi mahsulotlari hajmining o`zgarishiga bevosita ta`sir etadigan omil hisoblanadi. Rossiyada 1980-95 yillar davomida ekin maydonlarining qisqarishi bilan qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi ham oldingi yilga

nisbatan kamayib bordi, faqatgina ekin maydonlarining hajmi barqarorlashtirilgandan so'nggina qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida o'sishlar kuzatildi. Agar 2004-yilda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmini keyingi yillardagi o'zgarish indeksiga mutanosib tarzda hisoblab chiqilsa, 2011-yilda 2004-yilga nisbatan 32,5 % ko'proq mahsulot yetishtirilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi (2.2-rasm).



2.1-rasm. Rossiya qishloq xo'jaligi ekin maydonlari hajmi o'zgarish dinamikasi (barcha toifadagi xo'jaliklarda, ming gektar)

Manba: Rossiya statistik yilnomasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan, 2012

2007-09 yillarda Rossiya ekin maydonlari yanada kengaytirilib borildi, lekin 2010-yilda bu o'sish to'xtatildi. Oldingi yilga nisbatan 2010-yilda ekin maydonlarining qisqarishi 2,6 mln. g.ni tashkil etdi va o'z-o'zidan ekin maydonining qisqarishi hosil yig'imining qisqarishiga sabab bo'ldi. Bundan tashqari 2010-yilda noqulay ob-havo ta'sirida kuzgi nobudgarchiliklar ko'lami o'tgan uch yil ichida eng yuqori ko'rsatkichga yetdi.

Rossiya qishloq xo'jaligida so'nggi o'n yillikda ekin maydonlarining hajmining o'zgarishi bilan bir qatorda uning xo'jalik toifalarining ulushi bo'yicha ham o'zgarishlar kuzatildi. 2000-11 yillarda jami ekin maydoni 8 mln gektarga

qisqargan bo'lsa, bu qisqarish asosan, qishloq xo'jaligi korxonalari yerlarining qisqarishi evaziga yuz berdi. Shunday qilib, Rossiya qishloq xo'jaligida asosiy ulushga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi korxonalari ulushi shu davrda 87 %dan 74 %ga qisqargan bo'lsada, hamon qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining asosiy qismi aynan qishloq xo'jaligi korxonalari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birgalikda, fermer xo'jaligi ekin maydoni ulushi bo'yicha 8 %dan 22 %ga o'sdi. Umumiy ekin maydonlarida kam ulushga ega bo'lgan, o'z o'rnida, poliz va sabzavot ekinlarining asosiy ta'minotchisi hisoblanmish dehqon xo'jaligi ekin maydonlari esa shu yillar mobaynida deyarli 500 gektarga qisqardi (2.1-jadval). Shunday ekan, Rossiyada xo'jalik yuritishning eng samarali, taraqqiy etgan davlatlar tajribasida o'zini har tomonlama oqlagan fermerlik harakati yildan-yilga e'tibor oshib bormoqda.

2.1- jadval

2000-11 yillarda Rossiya qishloq xo'jaligi ekin maydonlarining xo'jalik toifalarining ulushi bo'yicha o'zgarishi

	2000-yil		2011-yil		O'zgarish (+, -)
	ming.ga	%da	ming.ga	%da	ming.ga
Jami ekin maydoni	84670	100	76662	100	-8008
Shundan:					
qishloq xo'jaligi korxonalari	74192	87	56643	74	-17549
fermer xo'jaligi	6501	8	16531	22	+10030
dehqon xo'jaligi	3977	5	3488	4	-489

Manba: Rossiya statistik yilnomasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan, 2012

Ko'rib o'tganimizdek, Rossiya qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida qishloq xo'jaligi korxonalarining ulushi anchagina yuqori bo'lsa, O'zbekistonda qishloq xo'jaligining yer maydonlarining asosiy ulushi aynan fermer xo'jaligi hisobidadir. Jumladan, mamlakatimizda jami haydaladigan yerlarning 85 %idan ortig'i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri keladi⁴. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida yer islohotlarini

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasidan. "Xalq so'zi", 2013, 19-yanvar

amalga oshirish yer resurslarini turli xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar o‘rtasida qayta taqsimlash asosida amalga oshirilmoqda. Bundan asosiy maqsad yerga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, dehqonlarda yerga egalik hissini kuchaytirishdan iborat.

2000-yilga nisbatan 2011-yilda fermer xo‘jaliklariga ajratilgan yer maydonlari hajmi 9,5 martaga o‘sib, yer maydoni o‘rtacha 2000-yil 632,2 gektardan 2011-yilda 5841 gektarga yetdi.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, yurtimizda fermer xo‘jaliklariga ajratilgan yer maydonlari va ularning yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotidagi ulushi o‘rtasida muayyan nomutanosibliklar mavjud. 2003-yilda fermer xo‘jaliklari jami ekin maydonining 37,3 foizini egallagan holda ularning yalpi qishloq xo‘jaligidagi ulushi atigi 14,1 foizni tashkil etadi, holos. 2011-yilga kelib bu nisbatda sezilarli o‘zgarish bo‘ldi va jami ekin maydonida fermer xo‘jaliklarning ulushi 80,0% dan ortiqroqni va yalpi qishloq xo‘jalik mahsulotidagi ulushi 34,1% ni tashkil etdi. Chorvachilik tarmog‘ida bu ko‘rsatkich yanada pastroq⁵.

Respublikamizda fermer xo‘jaliklarining yer bilan ta‘minlanish darajasi bilan yalpi mahsulot miqdori o‘rtasidagi nomutanosiblikning yuzaga kelishiga olib kelgan quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

Birinchidan, hozirgi kunda ham fermer xo‘jaliklari aksariyat hollarda, o‘zlariga ajratib berilgan yer maydonlaridan o‘z ixtiyorlari bilan mustaqil holda foydalana olmayotganligi.

Ikkinchidan, fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan mahsulotlarga davlat buyurtmasining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi.


Uchinchidan, fermer xo‘jaliklarida agrotexnik va texnologik jarayonlarni o‘z vaqtida amalga oshirish uchun kerakli texnika vositalarining tanqisligi.

To‘rtinchidan, fermer xo‘jaliklari yetishtirayotgan qishloq xo‘jalik mahsulotiga baho disparitetining mavjudligi.

Ayni paytda yurtimizda 66 mingdan ortiq fermer xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, ular paxta xomashyosining qariyb hammasi, boshhoqli don ekinlarining 85 %i, meva-uzum, sabzavot va poliz mahsulotlarining salmoqli

⁵ O‘zbekiston Statistik yilnomasi(2012) ma’lumotlari asosida muallif tahlili.

qismini yetishtirmoqda. Fermer xo‘jaligi tadbirkorlik faoliyatining muhim shakli sifatida iqtisodiy taraqqiyotga turtki beruvchi muhim omil hisoblanadi.



2.2-rasm. Rossiyada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi (taqqoslama narxlarda, o‘tgan yilga nisbatan %da)

Manba: Rossiya statistik yilnomasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan, 2012

Shu munosabat bilan, O‘zbekiston fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Rossiya qishloq xo‘jaligida ham aynan shunday tendensiya kechmoqda va buning natijasida xo‘jalik yuritish shakllari orasida fermer xo‘jaliklarining mavqei yildan-yilga oshib bormoqda.

Rossiyada qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishini 1990-2011 yillar davomida kuzatadigan bo‘lsak, 1990-yilda umumiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 73,7 %i qishloq xo‘jaligi korxonalari hissasiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich kamayib borish barobarida 2011-yilga 47,2 %ni tashkil etgan. Dehqon xo‘jaligining ulushi esa, aksincha shu davrda ortib bordi va 2011-yilgacha bo‘lgan davrda 26,3 % ulushdan 43,8 %ga o‘zgardi. Ta’kidlash joizki, dehqon xo‘jaligi jami ekin maydonlarining 4 %iga egalik qilgan holda, jami qishloq xo‘jalik mahsulotlarining deyarli yarmiga yaqin qismini yetishtiradi. Shu o‘rnida ta’kidlash kerakki, fermer xo‘jaliklarida

yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi yildan-yilga ortib borayotgan bo'lsada, umumiy hosilga nisbatan hali ham kam ulushni tashkil etmoqda. 2011-yilda jami ekin maydoning 22 %iga ega bo'lgan fermer xo'jaliklarida yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining atigi 9 %i yetishtirilgan (2.2-jadval).

2.2-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi dinamikasi, %da

	1990	1995	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Barcha toifadagi xo'jaliklarda	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
jumladan:										
Qishloq xo'jaligi korxonalari	73,7	50,2	45,2	44,6	44,9	47,6	48,1	45,4	44,5	47,2
Dehqon xo'jaligi	26,3	47,9	51,6	49,3	48,0	44,3	43,4	47,1	48,3	43,8
Fermer xo'jaligi	...	1,9	3,2	6,1	7,1	8,1	8,5	7,5	7,2	9,0

Manba: Rossiya statistik yilnomasi, 2012

2.3-jadval ma'lumotlariga tayanib aytish mumkinki, Rossiyada ikkinchi non hisoblanmish kartoshka hosili o'rtacha hisobda yiliga 30 mln tonnani tashkil etadi. 2011-yilda oxirgi 10 yillikdagi eng yuqori hajmdagi hosilga erishilgan. Yurtimizda aynan shu yili 1862,4 ming tonna kartoshka yetishtirilib, oldinga yilga nisbatan 10 % o'sishni ko'rsatdi⁶.

Dehqonchilikda asosiy ekinlari sarasiga aynan donli ekinlarni kiritiladi. Donli ekinlarning, ayniqsa g'allaning o'rni beqiyosdir. Shu sababli, har bir mamlakat g'alla mustaqilligiga katta ahamiyat qaratishadi. Shuning uchun ham O'zbekistonda o'tish davrining birinchi yillaridan boshlab g'alla mustaqilligi siyosatini izchillik bilan amalga oshirib kelmoqda. Bunga erishish uchun paxta xom-ashyosi ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga harakat qilindi. Mustaqillikning dastlabki yillarida g'alla ekinlarining o'rtacha hosildorligi gektariga 11-12 sentnerni tashkil etar edi.

⁶ 2- ilovaga qaralsin


Dehqon xo`jaligi mahsulotlarining yalpi yig`imi
(barcha toifadagi xo`jaliklarda; mln. tonna)

	Yillar bo`yicha o`rtachasi				2008	2009	2010	2011
	1991 – 1995	1996-2000	2001 - 2005	2006 - 2010				
Donli ekinlar (qayta ishlangandan so`ng)	87,9	65,1	78,8	85,2	108,2	97,1	61,0	94,2
Jumladan: bug`doy	38,2	34,3	45,0	52,3	63,8	61,8	41,5	56,2
javdar	8,7	5,4	4,9	3,5	4,5	4,3	1,6	3,0
jo`xori	1,8	1,4	2,2	4,2	6,7	4,0	3,1	7,0
Arpa	22,7	14,2	17,7	16,6	23,2	17,9	8,4	17,0
Suli	10,5	6,6	5,6	4,9	5,8	5,4	3,2	5,3
tariq	0,9	0,8	0,7	0,4	0,7	0,3	0,1	0,9
grechka, ming t.	782	630	531	739	924	564	339	800
guruch, ming t.	640	431	494	819	738	913	1061	1056
Dukkakli ekinlar	2,5	1,3	1,7	1,5	1,8	1,5	1,4	2,5
jumladan, no`xot	2,1	0,9	1,2	1,2	1,3	1,3	1,2	2,0
Qand lavlagi	72	38	53	45	52	52	35	43
Kartoshka	36,8	31,8	28,4	27,3	28,8	31,1	21,1	32,7
Savzavotlar	10,2	10,5	11,2	12,3	13,0	13,4	12,1	14,7

Manba: Rossiya statistik yilnomasi, 2012

G`allachilikni rivojlantirish hamda respublikada don mustaqilligiga erishish maqsadida Rossiyadan keltirilgan intensive tipli bug`doy navlari sug`oriladigan yerlarning 95,0 foizga ekilib, don hosildorligini oshirilishi bilan birga 2002-yilda g`alla mustaqilligiga errishildi. Natijada g`alla yetishtiriladigan maydonlar salkam ikki barobarga oshdi⁷.

⁷ <http://www.agro.uz/uz/agriculture/38>




2.3-rasm. Rossiya qishloq xo'jaligida yalpi don yig'imi dinamikasi (barcha toifadagi xo'jalikda; qayta ishlangandan so'ng mln. tonnada)

Manba: Rossiya statistik yilnomasi ma'lumotlari, 2012

Rossiyada yetishtiriladigan asosiy boshoqli don ekinlari an'anaviy tarzda bug'doy va arpa tashkil etib, ular umumiy donli ekinlarning 75%dan ko'prog'ini tashkil etadi. 2011-yilda Rossiya umumiy ekinzorlarining 58%i, ya'ni 43572 ming gektar yerga donli ekinlar ekilgan (2.1-rasm), hamda bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan umumiy hisobda deyarli o'zgarishsiz qolgan bo'lsada, bug'doy maydonlari 4%ga qisqartirilib, arpa ekinzorlari 10%ga ko'paytirildi. Oxirgi o'n yillikda har yili o'rtacha 50 mln. tonnaga yaqin bug'doy hosiliga erishilmoqda. Birgina 2011-yilning o'zida Rossiya 56,2 mln. tonna bug'doy yig'ib olindi. Taqqoslaydigan bo'lsak, shu yili yurtimizda 7,1 mln. tonna bug'doy yig'ib olingan⁸.

Yalpi don yig'imi dinamikasi 2010-yilgi ko'rsatkichlarni hisobga olmaganida, so'nggi 6 yil ichida ijobiy ko'rsatkichlarni ko'rsatib keldi. 2010-yilgi natijalar ob-havoning noqulay kelganligi, hamda qishloq xo'jaligi uchun omadsiz yil bo'lganligi bilan izohlash mumkin(2.3-rasm).

⁸ O'zbekiston statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan, 2012



2.4-rasm Donli va dukkakli ekinlar hosildorligi (barcha toifadagi xo'jaliklarda, 1g. o'rilgan maydondan, sentner)


Manba: Rossiya statistik yilnomasi ma'lumotlari, 2012

2011-yilda donli va dukkakli ekinlar hosildorligi 1 gektarga 23 sentnerdan tushgan. Bu oldingi yilga nisbatan 22 %ga o'sgan degani. Bu oldingi yillarga nisbatan yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Lekin, donli va dukkakli ekinlar hosildorlik ko'rsatkichi dunyoning boshqa mamlakatlari bilan taqqoslab qaralganda, Rossiyada ancha past darajadadir⁹. Masalan, O'zbekistonda shu yili donli va dukkakli ekinlar hosildorlik darajasi 45 s/g dan oshiq bo'lgan¹⁰. Shunday bo'lsada miqyos samarasi evaziga, ya'ni ulkan yer maydoni evaziga Rossiya donli ekinlar yetishtirishda dunyodagi yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. Oxirgi 20 yil ichida 2008-yilda erishilgan hosildorlik ko'rsatkichi hanuzgacha eng yuqorisi bo'lib qolmoqda, ya'ni shu yilda hosildorlik gektariga 23,8 sentnerdan to'g'ri kelgan. Shu davr ichida eng past 9,4 sent/gek. hosildorlik ko'rsatkichi 1998-yilda kuzatilgan (2.4-rasm).

2011-yilda hosil yig'ish faqatgina donli ekinlarda emas, balki boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarida ham yuqori ko'rsatkichlar kuzatildi. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining hosil yig'imi dinamikasini quyidagi rasmda o'z aksini topgan.

⁹ 3-ilovaga qaralsin

¹⁰ 1-ilovaga qaralsin




2.5-rasm. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining hosil yig'imi dinamikasi
(barcha toifadagi xo'jaliklarda, mln. tonna)

Manba: www.id-marketing.ru sayti ma'lumotlari

Qishloq xo'jaligi Vazirligi ma'lumotlariga ko'ra qand lavlagi hosili shu yili 45 mln. tonnani tashkil etib, o'tgan yili bu ko'rsatkich 20,2 mln. tonnani tashkil etgan. Kungaboqar hosilining o'sishi 57 %ni tashkil etib 8,4 mln. tonnani tashkil etgan. O'z o'rnida, oldingi yilga nisbatan 3,5 barobar ko'proq raps yig'ilib 1 mln tonnani tashkil etgan. 2011-yilda 6 mln. tonna jo'xori yig'ishtirib olindi, bu o'tgan yilga nisbatan 2 barobardan ham ziyodroq ko'rsatkich degani (2.5-rasm).

Barcha davrda ham bug'doy va texnik ekinlarning asosiy yetishtiruvchilari qishloq xo'jaligi korxonalari bo'lib qolmoqda. 2011-yil ular yetishtirilgan bug'doyning 76,8 %ini, qand lavlagining 86,4%ini, kungaboqarning 71,9%ini yetishtirgan. Shunday bo'lsada, oxirgi yillarda bu ekinlarni yetishtirishda fermer xo'jaliklari ulushi oshib borishi kuzatilmoqda. 2011-yilda fermer xo'jaliklariga barcha turdagi qishloq xo'jaliklarida yetishtirilgan bug'doyning 22,1 %, kungaboqarning 22,7 %i to'g'ri kelgan (2.6-rasm).



2.6-rasm. Asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirishning xo'jalik toifalari bo'yicha strukturasi, (jami yetishtirilgan hosil hajmiga nisbatan %da)

Manba: "Вопросы и статистики" 6/2012

Kartoshka va sabzavotning asosiy qismi aholi dehqon xo'jaliklarida yetishtiriladi. 2011-yilda aholi dehqon xo'jaliklari jami kartoshka hosilining 79,6 %ini va savzavotlarning 66,6 %ini yetishtirgan.

Barcha mamlakatlar uchun g'alla strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki, g'alla mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy qishloq xo'jaligi mahsuloti hisoblanadi. Shu sababdan, har bir mamlakat alohida g'alla zahirasi to'plab boradi. Rossiyada 2011-yilda g'alla resurslari o'tgan yilga nisbatan 12,0 %ga o'sdi. 2006-11 yillar mobaynida o'rtacha g'alla resurslari 140 mln. tonnani tashkil etdi. G'alla importi hajmi esa shu yillar davomida kamayib bordi va 2011-yilda 0,7 mln. tonnani tashkil etdi.

Rossiya g`alla resurslari va foydalanilishi

(mln. tonna)

	2006	2007	2008	2009	2010	2011
Resurslar						
Yil boshidagi zahira	43,7	44,2	43,2	68,5	69,5	51,7
Yetishtirish (hosil to`liq yig`ib olingandan keyingi yalpi yig`im)	78,2	81,8	108,2	97,1	61,0	94,2
Import	2,3	1,1	1,0	0,4	0,4	0,7
Jami resurslar	124,2	127,1	152,4	163,3	130,9	146,6
Foydalanish						
Q/x mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining i/ch iste`moli	21,8	20,9	22,6	22,1	20,4	21,4
Jumladan: Urug`lik uchun	10,4	10,3	11,4	11,4	10,1	10,7
Chorva va qushlar ozuqasi uchun	11,4	10,6	11,2	10,7	10,3	10,7
Qayta ishlash (ozuq-ovqat va chorva yemi tayyorlash maqsadida)	46,2	45,2	49,4	48,8	43,9	47,8
Nobudgarchilik	0,9	1,0	0,9	1,0	0,9	0,9
Eksport	11,1	16,7	13,6	21,8	13,9	18,3
Alohida iste`mol (fond iste`moli)	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
Yil oxiridagi zahira	44,1	43,2	65,8	69,5	51,7	58,1


Manba: "Вопросы и статистики" 6/2012

G`alla eksporti hajmi esa oxirgi yillarda ortdi. O`rtacha g`alla eksporti hajmi shu davrda 16 mln. tonnani tashkil etdi. Rossiya qishloq xo`jaligida yil davomida yig`ilgan resurslarning odatda 40 %i yil oxiriga zahira qilib saqlab qo`yiladi. 2011-yilda jami g`alla resurslari 146,6 mln. tonnani tashkil etgan bo`lsa, shundan 58,1 mln tonnasi yil oxiriga zahira sifatida saqlab qo`yildi. Bu zahira, albatta, keyingi yil hisobiga qo`shilib boradi. Ta`kidlash joizki, Rossiya o`zining g`alla iste`molini bimalol qondira oladigan mamlakat hisoblanadi(2.4-jadval).

Qishloq xo`jaligi donli ekinlar yig`imining hududiy strukturasi tabiiy sharoit, iqlimga bog`liq ravishda joylashadi va ixtisoslashadi.

Donli ekinlar hududiy strukturasi Sibir va Privoljsk Federal okruglaridagi kichik miqyosdagi rejali o'sishni aytmaganda oxirgi 10 yil ichida amaliy o'zgarishlar kuzatilmadi. Umumiy hisobda, jami donli ekinlar maydonining yarmidan ortiqroq qismi Sibir va Privoljsk Federal okrugida joylashgan(2.7-rasm).

Manba: www.id-marketing.ru sayti ma'lumotlari



2.7-rasm. Yalpi don ekinlari yig'imining hududiy strukturasi, 2011-yil

2011-yilgi donli ekinlar yig'imining hududiy strukturasi ko'zdan kechirib, quyidagi xususiyatlarni keltirish mumkin:

- Jami bug'doy hosilining uchdan bir qismi Janubiy Federal okrug xo'jaligida yig'ib olinadi, Sibir okrug hamda Shimoliy Kavkaz okrug bug'doy hosili yig'imi bo'yicha keyingi o'rinlarni egallaydilar. Shunday qilib, Rossiyada jami bug'doy hosilining 70 %dan oshiqrog'i ta'kidlangan uchta okrug xo'jaligida yig'ib olinadi;
- Mamlakatda javdar hosilining asosiy ulushi Privoljsk Federal okrugiga to'g'ri keladi (64%), 16% javdar esa Markaziy Federal okrugda yig'iladi;
- Arpa hosilining 70% iga yaqini uchta federal okruglarda yig'ib olinadi: Markaziy, Janubiy va Sibir;
- Yalpi suli yig'imining yarmidan ortig'rog' ulushi Sibir Federal okrug hissasiga to'g'ri keladi;

- Shimoliy Kavkaz hududi – jo`xori yetishtirish bo`yicha Rossiyada yetakchi hisoblanib, 2011-yilda jami jo`xori hosilining 70%ini tashkil etgan;
- Tariq yetishtirish bo`yicha Shimoliy Kavkaz, Sibir va Privoljsk okruglari mos ravishda 31%, 30% hamda 23% ulushga ega bo`lgan;
- Grechka va guruchning vatani hisoblanmish Janubiy Federal okrugda 2011-yilda grechkaning 74 %i hamda tozalanmagan guruchning 91 %i yig`ib olindi.

Qishloq xo`jaligi mahsulotlari yetishtirishning tabiiy sharoitga mutanosib tarzda hududiy ixtisoslashuvi uning samaradorligini belgilovchi muhim omil sanaladi.

2.2. Rossiya Federatsiyasida agrar islohotlarning o`ziga xos jihatlari

Rossiya qishloq xo`jaligi bo`yicha ulkan salohiyatga ega. Mamlakatda dunyodagi haydaladigan yerning o`rtacha 9 %i, 20% chuchuk suv zahirasi joylashgan. Mamlakat aholisining to`rtidan bir qismi (27%) qishloqlarda yashaydi. Lekin bunday salohiyatdan unumli foydalanish lozim.

Mamlakatda agrar sohani isloh etish borasida dastlab 2000-yil “ASMni rivojlantirish” (2006-2007 yillar) yetakchi milliy loyihasi qabul qilingan. Yetakchi milliy loyiha maqomini olgan bu loyiha uchta yo`nalishni qamrab olgandi:

1. chorvachilikni jadal rivojlantirish (14,63 mlrd. rubl). U quyidagilarni qamrab oldi:

- chorvachilik komplekslarini qurish, ularni modernizatsiya va rekonstruksiya qilishga 8 yil muhlat bilan tijorat banklari kreditlarini subsidiyalı foiz stavkalarda berish (6,63 mlrd.rubl);

- nasldor mollarni lizing asosida berish (6,0 mlrd. rubl);
- chorvachilik uchun texnika va dastgohlarni lizing asosida berish (2,0 mlrd. rubl).

2. Kichik ko`rinishdagi xo`jaliklarni rivojlantirishni rag`batlantirish (15,97 mlrd. rubl). Bu yo`nalishda quyidagi masalalarga e`tibor qaratildi:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaradigan dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish maqsadida subsidiyalik foiz stavkalarida kreditlar berish (6,57 mlrd rubl);

- qishloq xo'jaligi iste'molchi kooperativlari tarmoqlarini rivojlantirish (8,1 mlrd. rubl);

- yer-ipoteka kreditlari tizimini yaratish (1,3 mlrd. rubl)

3. Qishloqlarda yosh mutaxassislarni turar joy bilan ta'minlash (4 mlrd. rubl)

Dastlab bu uchta yo'nalish uchun ajratilayotgan mablag'lar 35 mlrd. rubl atrofida baholanayotgan edi. Keyinchalik unga yangi qishloq xo'jaligi faoliyat turlari ham qamrab olindi (qo'ychilikni, yilqichilik, baliqchilik sanoati kabilarni rag'batlantirish) va raqam 47,8 mlrd. rublga o'zgardi.

Bu loyihada ASM sohasiga to'g'ridan-to'g'ri davlat investitsiyalarini jalb etish ko'zda tutilmagandi. Na kredit, na texnika, na nasldor mollar, na turar joylar borasida. Lekin, shunday bo'lsada loyihaning moliyaviy asosi kredit tarmog'iligicha qoldi.

Milliy Loyiha texnik sabablarga ko'ra 2006-yilning bahoridan boshlandi. Loyiha asosida 2006-yilda 16 mingdan ortiq yosh mutaxassislar qishloq joylarda tekin turar joylar bilan ta'minlandi. Shu yilda go'sht yetishtirish 5 % ga, parrandachilik – 15% atrofiga, cho'chqa yetishtirish – 9%, sut ishlab chiqarish – 1 %ga o'sish kuzatildi¹¹.

“ASMni rivojlantirish” Milliy Loyiha yakunlangach, uning davomi sifatida 2008-2012 yillar uchun mo'ljallangan qishloq xo'jaligini rivojlantirish Davlat Dasturi qabul qilindi.


2006-yildagi “qishloq xo'jaligini rivojlantirish to'g'risidagi”(FZ №264/29.12.2006 y.) qonun qabul qilinishi bilan agrar sektorni rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'larni taqsimlash tartibi o'zgardi. Shundan buyon faqatgina qishloq xo'jaligi mahsulotlari, oziq-ovqat va xomashyo bozorlarini tartibga solish hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirish Davlat dasturi(Gosprogramma)da rejalashtirilgan bo'lsagina, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga

¹¹ Manba: RF qishloq xo'jaligi Vaziri A.V.Gordeyevning 25.12.2007 sanasidagi RF Prezidenti oldidagi chiqishi

davlat tomonidan qilinadigan moliyaviy yordam taqdim etilishi mumkin. Bu dasturning yutuq jihati shundaki, agrar bozorning barcha ishtirokchilari o'zining besh yillik davrdagi faoliyatini rejalashtirishi, oldindan o'yin qoidalarini bilishi, ya'ni davlat yordamining aniq belgilangan miqdorini, subsidiyalar hajmini bilishlari mumkin edilar.

Dastlabki qishloq xo'jaligini rivojlantirish Davlat Dasturi 2009-2010 yillardagi kutilmagan qurg'oqchilik oqibatida bir necha bor o'zgartirishlar kiritilgan bo'lsada, 2008-2012 yillar uchun amal qilindi. Keyingi Davlat Dasturi qayta ishlanib, 2013-yildan kuchga kirdi. Uning 2013-2020 yillar uchun loyihasi mutasaddi vazirlar tomonidan uzoq muhokama qilindi, shu jumladan Rossiyaning JST ga qo'shilishi masalalari ham ko'rib o'tilib, 2012-yil 10-iyunda Dastur qabul qilindi.

Yangi Davlat Dasturi (GosProgramma)ning oldingisidan farq qiladigan tomonlari e'tibor qaratadigan bo'lsak, birinchidan, moliyalashtirish hajmining sezilarli o'sishi.



- I - dehqonchilik tarmoqlarini rivojlantirish hamda dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash va realizatsiya qilish;**
- II - chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish hamda chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va realizatsiya qilish;**
- III – kichik turdagi xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash;**
- IV – texnik va texnologik modernizatsiya va innovatsion rivojlantirish;**
- V – Davlat Dasturini realizatsiya qilishni ta'minlash;**
- VI – qishloq joylarni rivojlantirish**
- VII – qishloq xo'jaligi yerlari melioratsiyasini yaxshilash**

2.8-rasm. Qishloq xo`jaligini rivojlantirish Davlat Dasturlarining asosiy yo`nalishlarini moliyalashtirishda ularning ulushlari

Yangi Davlat Dasturida agrar siyosat maqsadi ham o`zgardi. Oldingi Davlat Dasturida asosiy maqsad qishloq joylarni rivojlantirish bo`lgan bo`lsa, endilikda bu maqsad ikkinchi darajada bo`lib qoldi. Yangi Davlat Dasturining bosh maqsadi – mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdir.

Yangi Davlat Dasturi doirasida hukumat tomonidan qishloq xo`jaligini rivojlantirish borasida quyidagi muammolar ko`rib o`tildi:

- Oziq-ovqat sanoati va qishloq xo`jaligida texnikalarning eskirganligi, ularni modernizatsiya qilish uchun qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining daromadlari darajasining yetarli emasligi oqibatida Rossiya qishloq xo`jaligining dunyoni rivojlangan mamlakatlariga nisbatan texnik-texnologik jihatdan ortda qolishi;

- Savdo tarmog`ida monopoliyaning yuqoriligi hamda bozor infrastrukturasi mukammal emasligi sababli qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining bozorda imkoniyatlari cheklanganligi;

- Qishloq joylarda ijtimoiy rivojlanish tempining pastligi, ijtimoiy-demografik holatning yomonlashishi, buning natijasida aholining mehnatga layoqatli qismining, ayniqsa yoshlarning qishloqlarni tark etishi;

Darhaqiqat, qishloq xo`jaligidagi ish haqi darajasi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi o`rtacha ish haqining 51%ni tashkil etadi. Odamlarning ko`chib ketishi oqibatida ko`plab qishloq hududlari huvillab qolmoqda.

Davlat Dasturi Agrosanoat majmuasining faoliyat sohasini hamda uning barcha tarmoqlarini kompleks rivojlantirishni ko`zda tutadi (Rossiyaning JSTga qo`shilishini hisobga olgan holda). Ko`zda tutilgan asosiy vazifalar ham ikki darajaga bo`lingan.

Birinchi darajali ustuvor vazifalar quyidagilar:

- Ishlab chiqarish sohasida – chorvachilik (sut va go`sht ishlab chiqarish) sohasi uchun, mamlakatning raqobat ustunligidan foydalangan holda, birinchi navbatda ulkan qishloq xo`jaligi maydonini yaratish;

- iqtisodiy sohada – qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning daromadlarini oshirish;

- ijtimoiy sohada – qishloq joylarda mehnat resurslarini jalb etish, mamlakatning hududiy yaxlitligini saqlash hamda aholining quyi qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ratsional me`yor asosida iste`mol qilishlariga iqtisodiy jihatdan ta`minlanishi uchun sharoitlar yaratish, qishloq joylarni barqaror rivojlantirish;

- Institutsional sohada – agrosanoat majmuasida integratsion aloqalarni rivojlantirish va oziq-ovqat komplekslarini shakllantirish;

- Ishlab chiqarish salohiyatini oshirish borasida – qishloq xo`jaligi yerlarini meliorativ holatini yaxshilash;

- Malakali kadrlar bilan ta`minlash – agrosanoat majmuasiga innovatsiyalar jalb etish hamda uni yangi sifat darajasiga ko`tarish;

Ikkinchi darajali ustuvor vazifalar quyidagi yo`nalishlarni o`zida jamlaydi:

- Import o`rnini bosuvchi qishloq xo`jaligi tarmoqosti sohalarini rivojlantirish, jumladan sabzavotchilik va meyvachilik sohalarini ham o`z ichiga olgan holda;

- Oziq-ovqat va qishloq xo`jaligi mahsulotlarining ekologik xavfsizligini ta`minlash;

- Qishloq xo`jaligi mahsulotlari eksportini kengaytirish, xomashyo va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ichki bozorni to`yintirish;

- Logistika xarajatlarini kamaytirish;

Hukumat bayon etgan yuqoridagi maqsad va vazifalarga qaramasdan, davlat siyosatining eng ustuvor vazifasi – qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish bo`lib qolmoqda. Shu sababdan, Davlat Dasturini moliyalashtirishda asosiy mablag` dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ko`paytirish va qayta ishlashga yo`naltirilgan (2.4-jadval).

Dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish bo`yicha kichik dasturlar ma`lum bir tizimga kiritilib, quyidagi to`rtta asosiy yo`nalishlarni o`z ichiga oldi:

- Qishloq xo`jalik mahsulotlarini turlariga ko`ra ishlab chiqarish;

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash;
- Bozorni tartibga solish va infrastrukturani rivojlantirish;
- Sug'urta va kreditlash;

Qishloq xo'jaligi Vazirligi hisob-kitobiga ko'ra, yangi Davlat Dasturini realizatsiya qilish natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining o'sish sur'ati yiliga o'rtacha hisobda kamida 2,5 %dan tushishi ko'zlanmoqda. 2020-yilgacha mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi Doktrinasida ko'rsatilgan asosiy ko'rsatkichlarga erishish lozimligi belgilangan.

2.4 - jadval

2013-2020 yillarda Davlat Dasturini moliyalashtirish

Dasturlar	Mlrd. rubl
Dehqonchilik tarmoqosti sohalarini hamda dehqonchilik mahsulotlarini qayta ishlash va realizatsiya qilishni rivojlantirish	466,5
Chorvachilik tarmoqosti sohalarini hamda chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va realizatsiya qilishni rivojlantirish	499,3
Go'sht yetishtirishni rivojlantirish	65,4
Kichik turdagi xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash	83,6
Texnik va texnologik modernizatsiya qilish, innovatsiyani yuksaltirish	23,7
Davlat Dasturini realizatsiya qilishni ta'minlash	202,5
2013-yilgacha qishloqlarni ijtimoiy rivojlantirish (federal maqsadli dastur)	9,0
2014-2017 yillar mobaynida qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish* (federal maqsadli dastur - loyihasi)	90,4
Rossianing milliy mulki sifatida agrolandshaf va qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini tiklash va uni saqlash (federal maqsadli dastur)	7,4
2014-2020 yillar davomida Rossiya qishloq xo'jaligi yerlarini meliorativ holatini yaxshilash** (federal maqsadli dastur - loyihasi)	62,0

* Moliyalashtirish hajmi Federal Maqsadli Dastur (FMD-loyiha) "2014-2017 yillar mobaynida qishloq xo'jaligi hududlarini barqaror rivojlantirish" tasdiqlangandan so'ng qayta ko'rib chiqiladi.

** Moliyalashtirish hajmi Federal Maqsadli Dastur (FMD-loyiha) "2014-2020 yillar mobaynida Rossiya qishloq xo'jaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash" tasdiqlangandan so'ng qayta ko'rib chiqiladi.

Manba: Rossiya qishloq xo'jaligi Vazirligi ma'lumotlari

Yangi Dasturda bozor infrastrukturasi va biotexnologiyalarni rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligi rivojlantirishda davlat organlari nazoratini samarali ta'minlash bo'yicha vazifalar qo'yildi. JSTga qo'shilish borasida yerning sifatini oshirish kabi aniq topshiriqlar ishlab chiqildi.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligida ulkan salohiyatga ega bo'lgan Rossiya modernizatsiya ishlariga alohida e'tibor qaratishi uning bu sohada katta yutuqlarga

erishishini ta'minlaydi. Shu o'rinda, yangi Davlat Dasturi ham qishloq xo'jaligini istiqboldagi rejalarini, rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda muhim dastur bo'lib qoladi. Shu o'rinda, ta'kidlash joizki yurtimizda ham qishloq xo'jaligida ko'plab islohotlar olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan keng miqyosli iqtisodiy islohotlar agrar sohada tub o'zgarishlarga olib keldi.

Mahkamaviy boshqaruv tizimi bartaraf etilib, o'rniga bozor usullari tatbiq etila boshlandi. Bu esa o'z navbatida qayta ishlovchi tarmoqlarni qishloq xo'jaligi xomashyosi bilan, aholini esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'la ta'minlashga asos yaratdi. Shuningdek, qishloq xo'jaligi eksport borasida ham yetakchi sohalardan biriga aylandi. Eng asosiysi qisqa muddatda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligiga erishildi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi bo'yicha O'zbekistonda olingan muhim ilmiy va amaliy natijalar:

1) Sug'oriladigan, lalmi va o'rmon yerlarining, tog'li, cho'l hududlari va yaylovlarning unumdorligini va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan istiqbolli texnologiyalar ishlab chiqildi va ularning elementlari ilmiy jihatdan asoslandi;

2) G'o'za, g'alla va boshqa qishloq xo'jaligi o'simliklari, mevali va o'rmon ekinlari, uzumning yangi navlari va duragaylari yaratildi, ya'ni g'o'zaning 19 ta, bug'doyning 21 ta va qattiq bug'doyning 7 ta, arpaning 9 ta, tritikalening 2 ta, makkajo'xorining 5 ta, sholining 9 ta, moyli ekinlarning 10 ta, mevali daraxtlarning 21 ta, uzumning 3 ta, sabzavotning 34 ta, poliz ekinlarining 14 ta, kartoshkaning 4 ta, ozuka ekinlarining 7 ta, cho'l-yaylov ekinlarining 10 ta yangi navlari va 28 ortiq veterinariya preparatlari, qorako'l ko'ylarning 5 ta zavod tiplari, 30 dan ortiq qishloq xo'jaligi mashinalarining (plug, tekislagich, seyalka va boshqalar) maket nusxalari yaratildi, vazirlik tizimidagi ilmiy ta'lim muassasalarida 100 dan ortiq fan doktori va 3000 ga yaqin nafar fan nomzodi tayyorlandi;

3) Qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlashning ilg'or va resurstejamkor texnologiyalarini ishlab chiqildi;

4) O'simliklarni himoya qilishning biologik va uyg'unlashtirilgan samarador usullari yaratildi;

5) Qishloq va suv xo'jaligi sohalari uchun puxta, ish unumi yuqori, ekologik zararsiz mashinalar, mexanizmlar va qurilmalarning yangi turlari yaratildi va ularning parametrlari asoslandi;

6) Qorako'l qo'ylar, parrandalar, baliq va ipak qurtining yangi zotlari, turlari va krosslari yaratildi;

7) Qoramollar, qorako'l qo'ylar, parrandalar, baliq va ipak qurtini parvarishlashning ilg'or texnologiyalari yaratildi;

8) Chorvachilik uchun samarali va arzon veterinariya preparatlari va davolash-profilaktika usullari yaratildi;

9) Qishloq va suv xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishga doir ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Ayni paytda qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tizimidagi ilmiy va oliy ta'lim muassasalari jami 444 ta, shu jumladan, 31 ta (5 ta yosh olimlar) fundamental (15 ta tashkilot), 345 ta (9 yosh olimlar) ilmiy-amaliy (35 ta tashkilot), 19 idoralararo ilmiy-amaliy (8 tashkilot), 41 ta innovacion (25 tashkilot) grant loyihalari ustida hamda 8 ta (7 tashkilot) noyob ob'ektlarda tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Ko'rib o'tilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, shuni aytish mumkinki, olib borilayotgan agrar islohotlarning muhim yo'nalishi sifatida Rossiyada ham O'zbekistonda mamlakatda qishloq xo'jalik yerlarini meliorativ holatini yaxshilash, ekinlar hosildorligini oshirish, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan texnikalarni modernizatsiya qilish va provardida, mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Rossiya qishloq xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos jihatlari masalalariga bag'ishlangan bitiruv-malakaviy ishi natijalarini umumlashtirish quyidagi xulosalarga kelish va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi:

1. Qishloq xo'jaligi ASM dagi eng muhim tarmoqlardan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi mamlakat aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir. Aholi iste'mol tovarlariga bo'lgan talabining deyarli $\frac{3}{4}$ qismi qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobidan qondiriladi.

2. Boshqa sohalardan farqli ravishda qishloq xo'jaligining ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Bular:

- Tarmoqda yer eng asosiy, almashtirib bo'lmaydigan ishlab chiqarish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Yer resurslari makonda cheklangan va uning yuzasini kengaytirish imkoniyati yo'q;

- Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish juda katta maydonlarda olib boriladi;

- Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish turli tuproq-iqlim sharoitlarida olib borilib, ishlab chiqarish jarayonini mexanizatsiyalash, kimyolashtirish va tarmoq melioratsiyasi, qishloq xo'jalik ekinlarining navini tanlash hamda naslchilikda ham ushbu xususiyatni e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega;

- Qishloq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlarida, ayniqsa, dehqonchilikda mehnat sarfi bilan mahsulot olish o'rtasida vaqt jihatidan uzilish mavjud, ya'ni mablag` deyarli butun yil davomida sarflanadi, mahsulot esa ma'lum davrdagina olinadi;

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlari keyinchalik ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositasi (urug'lik, em, organik o'g'itlar, yosh chorva mollariga ozuqa va boshqalar) sifatida ishlatiladi;

- Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'p turlarini uzoq saqlash mumkin emas. Bu muammo qishloq xo'jaligi mahsulotlarning deyarli bir davrda pishib yetilishi oqibatida yanada chuqurlashadi;

- Tarmoq yuqori fond sig'imga ega bo'lib, aylanma kapital sekin aylanadi, investorlar uchun ushbu holat unchalik foydali bo'lmaganligi sababli bu tarmoqni rivojlantirishda asosan davlatning roli muhim ahamiyat kasb etadi;

3. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari yaxshi rivojlangan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'i davlat tomonidan tegishli qonun-qoidalar asosida tartibga solib turilishi va qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy iqlim sharoitiga (jonli organizmlar, jug'rofiy muhit, ob – havo va bosh.) bog'liqligi dehqonlar faoliyati rag'batlantirish va sug'urtalash kabi bir qator himoya vositalarni yaratishni talab qiladi.

Ob – havoning noqulay kelishi nafaqat qishloq xo'jaligi tarmog'ida, balki butun mamlakat miqyosida ham qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Oziq – ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zaxiralari bo'lishi maqsadga muvofiq. Hosil mo'l bo'lgan yillarda davlat oziq – ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlashi va noqulay kelib, tanqislik vujudga kelgan yillari bu zahiralaridan talabni qondirish maqsadida foydalanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtda dunyoning bir qator ilg'or davlatlarida qo'llab kelinadi va o'zining ijobiy samarasini bermoqda.

4. MDH mamlakatlari ichida eng iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan mamlakat Rossiyadir. Shu o'rinda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bo'yicha ham dunyoning yetakchi mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Shunga qaramasdan, haligacha agrar sohani rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan hamda o'z yechimini kutib yotgan muammolar talaygina.

5. Mamlakat ulkan hududiy imkoniyatga ega, lekin kichik qismidagina dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullaniladi. Bunga sabab Rossiya zaminining katta qismida qishloq xo'jaligi uchun noqulay ob-havo sharoiti hukm suradi hamda hosilning nobud bo'lish riski judayam yuqori.

6. O'tgan 30 yil mobaynida Rossiya ekin maydonlarida katta qisqartirishlar amalga oshirildi. Ta'kidlab o'tish joizki, shu davrda Rossiyaning ekin maydoni O'zbekistonning umumiy yer maydonidanda oshiqroq bo'lgan ekin maydoniga qisqarib bordi.

7. Rossiya qishloq xo'jaligida so'nggi o'n yillikda ekin maydonlarining hajmining o'zgarishi bilan bir qatorda uning xo'jalik toifalarining ulushi bo'yicha ham o'zgarishlar kuzatildi. Shu davrda jami ekin maydoni qisqarishi, asosan Rossiya qishloq xo'jaligida asosiy ulushga ega bo'lgan qishloq xo'jaligi korxonalari yerlarining qisqarishi evaziga yuz berdi. O'z o'rnida, fermer xo'jaligi ekin maydoni ulushi ortib bordi.

8. Rossiyada yetishtiriladigan asosiy boshqoqli don ekinlari an'anaviy tarzda bug'doy va arpa tashkil etib, ular umumiy donli ekinlarning 75%dan ko'prog'ini tashkil etadi.

9. Rossiyada yetishtiriladigan donli va dukkakli ekinlarning hosildorlik ko'rsatkichi boshqa mamlakatlar bilan taqqoslaganda ancha past darajada. Shunday bo'lsada miqyos samarasi evaziga, ya'ni ulkan yer maydoni evaziga Rossiya donli ekinlar yetishtirishda dunyodagi yetakchi mamlakatlardan biri hisoblanadi.

10. Barcha mamlakatlar uchun g'alla strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki, g'alla mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy qishloq xo'jaligi mahsuloti hisoblanadi. Rossiyada g'alla importi hajmi esa oxirgi yillar davomida kamayib bordi. G'alla eksporti hajmi esa, aksincha ortdi. Rossiya qishloq xo'jaligida yil davomida yig'ilgan resurslarning odatda 40 %i yil oxiriga zahira qilib saqlab qo'yiladi. Ta'kidlash joizki, Rossiya o'zining g'alla iste'molini bimalol qondira oladigan mamlakat hisoblanadi.

11. Barcha davrda ham bug'doy va texnik ekinlarning asosiy yetishtiruvchilari qishloq xo'jaligi korxonalari bo'lib qolmoqda. Shunday bo'lsada, oxirgi yillarda bu ekinlarni yetishtirishda fermer xo'jaliklari ulushi oshib borishi kuzatilmoqda. Kartoshka va sabzavotning asosiy qismi aholi dehqon xo'jaliklarida yetishtiriladi.

12. Qishloq xo`jaligi donli ekinlar yig`imining hududiy strukturasi tabiiy sharoit, iqlimga bog`liq ravishda joylashadi va ixtisoslashadi. Donli ekinlar hududiy strukturasi Sibir va Privoljsk Federal okruglaridagi kichik miqyosdagi rejali o`shishni aytmaganda oxirgi 10 yil ichida amaliy o`zgarishlar kuzatilmadi. Umumiy hisobda olib qaralganda, hududlar donli ekinlar ekishga quyidagicha ixtisoslashgan:

- Jami donli ekinlar maydonining yarmidan ortiqroq qismi Sibir va Privoljsk Federal okrugida joylashgan;

- Jami bug`doy hosilining asosiy qismi Janubiy Federal hamda Sibir okrugi xo`jaliklarida yig`ib olinadi;

- Mamlakatda javdar hosilining asosiy ulushi Privoljsk Federal okrugiga to`g`ri keladi;

- Arpa hosilining 70% iga yaqini uchta federal okruglarda yig`ib olinadi: Markaziy, Janubiy va Sibir;

- Yalpi suli yig`imining yarmidan ortig`rog` ulushi Sibir Federal okrugi hissasiga to`g`ri keladi

- Shimoliy Kavkaz hududi – jo`xori yetishtirish bo`yicha Rossiyada yetakchilikni o`zida saqlab kelmoqda;

- Janubiy Federal okrug esa Grechka va guruchning vatani hisoblanadi;

13. Mamlakatda agrar sohani isloh etish borasida dastlab 2000-yil “ASMni rivojlantirish” (2006-2007 yillar) yetakchi milliy loyihasi qabul qilingan. Yetakchi milliy loyiha maqomini olgan bu loyiha uchta yo`nalishni qamrab oldi:

- Chorvachilikni jadal rivojlantirish;
- Kichik ko`rinishdagi xo`jaliklarni rivojlantirishni rag`batlantirish;
- Qishloqlarda yosh mutaxasislarni turar joy bilan ta`minlash;

14. “ASMni rivojlantirish” Milliy Loyiha yakunlangach, Rossiyada agrar islohotlarning davomi sifatida 2008-2012 yillar uchun mo`ljallangan qishloq xo`jaligini rivojlantirish Davlat Dasturi qabul qilindi. Bu dasturning yutuq jihati shundaki, agrar bozorning barcha ishtirokchilari o`zining besh yillik davrdagi

faoliyatini rejalashtirishi, o`yin qoidalarini bilishi, ya`ni davlat yordamining aniq belgilangan miqdorini, subsidiyalar hajmini bilishlari mumkin edilar.

15. Davlat Dasturi (2008-12) ham yakunlangach, 8 yilga mo`ljallangan Yangi Davlat Dasturi ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etish boshlab yuborildi. Yangi Davlat Dasturida agrar siyosat maqsadi ham o`zgardi. Oldingi Davlat Dasturida asosiy maqsad qishloq joylarni rivojlantirish bo`lgan bo`lsa, endilikda bu maqsad ikkinchi darajada bo`lib qoldi. Yangi Davlat Dasturining bosh maqsadi – mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta`minlashdir.

16. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz qishloq xo`jaligida amalga oshirilgan keng miqyosli iqtisodiy islohotlar agrar sohada tub o`zgarishlarga olib keldi.

Mahkamaviy boshqaruv tizimi bartaraf etilib, o`rniga bozor usullari tatbiq etila boshlandi. Bu esa o`z navbatida qayta ishlovchi tarmoqlarni qishloq xo`jaligi xomashyosi bilan, aholini esa oziq-ovqat mahsulotlari bilan to`la ta`minlashga asos yaratdi. Shuningdek, qishloq xo`jaligi eksport borasida ham yetakchi sohalardan biriga aylandi. Eng asosiysi qisqa muddatda mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligiga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qonunlar, qarorlar, boshqa huquqiy-siyosiy hujjatlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni.
- T.: «Adolat», 1998. - 19b.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi qonuni.
- T.: «Adolat», 1998. - 16b.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat Yer fondining kadastri to'g'risida»gi qonuni. - T.: «Adolat», 1998. - 13b.
- 1.4. O'zbekiston qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga oid qonun, hukumat qarorlari va me'yoriy hujjatlar to'plami. _ T.: «O'zbekiston o'qituvchi», 1998. - 231 b.
- 1.5. “Qishloq xo'jaligida agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2001. – 1 fevral.
- 1.6. “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada ekinlashtirish sohasidagi ustivor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Xalq so'zi” gazetasi, 15 iyun 2005 yil.
- 1.7. “Tadbirkorik subyektlarini huquqiy himoya qilish tiziini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Xalq so'zi” gazetasi, 16 iyun 2005 yil.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasi to'g'risida”gi Farmoni. // Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 12 b.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 476-sonli qarori.//

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asoslari. – T.: Fan. 2003. – 41 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari

2.1. Karimov I.A. “Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”. – T.: O‘zbekiston, 1995. – 273 b.

2.2. Karimov I.A. "Qishloq xo‘jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turlarini shakllantirish". - T.: "O‘zbekiston", 1995.

2.3. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – T.: “O‘zbekiston”, 1992. – 74 b.

2.4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: “O‘zbekiston”, 2005. – 96 b.

25. Karimov I.A. "Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti – to‘kin hayot manbai".-T.:O‘zbekiston" 1998.

26. Karimov I.A. "Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifa"-M.: "O‘zbekiston" 2000 y.

2.7. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz –vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 80 b.

2.8. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: “O‘zbekiston”, 2011. – 48 b.

2.9. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi // 2011-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2012-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruza. - “Xalq so‘zi”, 2012, 20-yanvar.

2.10. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish // O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza.

3. Kitoblar va monografiyalar

3.1. Свинен Ю. Пакус К. "Аграрные преобразования в странах с переходной экономикой". Вопросы экономики. 2001. №8 102-118 ст.

3.2. Глазовений Н.Ф. Гордеев А.В. Сдасюк Г.В. "Устойчивое развитие сельского хозяйства и сельских территорий" "КМК"-М.:2005-615 ст.

3.3. Экономика сельского хозяйства. Учебник, под.ред. Коваленко. Н.Я.М.:Юркнига, 2004-392 ст.

3.4. Коваленко С.Б. Козенко З.Н. "Сельскохозяйственная кредитная кооперация" - М.: "Финансы и статистика" - 2005 -446 ст.

3.5. Ткач А.В. "Сельскохозяйственная кооперация". "Дашновик" - М.: 2006-203 ст.

3.6. Модель "Сельская профильная школа"- М.: АПК и ППРО, 2004-32 ст.

3.7. Аллахбердиев А.И. "Развитие форм кооперации в аграрном секторе АПК", "Экономика" 2003-253 ст.

3.8. Ключно Л.Н. "Сельскохозяйственная кооперация"-М.: "Дашновико" 2003-480 ст.

3.9. Коваленко С.Б. Козенко З.Н. "Сельскохозяйственная кредитная кооперация" - М.: "Финансы и статистика" - 2005 -446 ст.

3.10. Радионова О.А. "Интеграция в сфере агропромышленного производства, тенденции, механизмы реализации"-М.: РАСХН. ВНИЕТУСК, 2000-310 ст.

3.11. Abdugʻaniev A., Abdugʻaniev A.A. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti.-T.: Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamgʻarmasi, 2004-304 b.

3.12. Salimov B.T. va boshqalar. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi.-T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi, 2004-176 b.

3.13. Zokirov O., Pardaev A. Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik.-T.: UAJBNT markazi 2003-456 b.

3.14. Juraev F. "Qishloq xo'jaligi korxonasida ishlab chiqarishni tashkil etish".-T.: "Istiqlol". 2004-344 b.

3.15. Ergashev R.X., Shoxo'jaeva Z.S., Xamraeva S.N. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (I qism) // Uslubiy qo'llanma. Qarshi, 2009 y, 100 b.

3.16.Интервью Министра сельского хозяйства Российской Федерации А.В.Гордеева РИА-Новости, 24.04.2007.

(<http://www.rian.ru/interview/20070424/64301500.html>)

3.17.Указ Президента РФ «Об утверждении Доктрины продовольственной безопасности Российской Федерации» от 1 февраля 2010г. http://state.kremlin.ru/security_council/6752

4. Jurnal va to'plamlardagi maqolalar

4.1. Барсукова С.Ю. (2011) Условия эффективного протекционизма. Размышления С.Ю. Витте и Д.И. Менделеева // ЭКО. № 7.

4.2. Серова Е.В., Шук О.В. (2007) Национальный проект «Развитие АПК»: состояние и перспективы // Национальные проекты. № 1.

4.3. Трушин Ю.В. Россельхозбанк. Развитие финансово-кредитной системы АПК // Промышленник России. № 1.

5. Statistik to'plamlar va ma'lumotnomalar

5.1. O'zbekiston Respublikasining 2005-yil statistik axborotnomasi. T.: 2006. – 96 b.

5.2. O'zbekiston iqtisodiyoti: Axborot va tahliliy sharh 2007-yil. T.: 2008. – 98-b.

5.3. O'zbekiston Respublikasining 2005-yil statistik axborotnomasi. T.: 2008. – 143 b.

- 5.4. O`zbekiston Respublikasining 2008-yil statistik axborotnomasi. T.: 2009. – 165 b.
- 5.5. “Вопросы и статистики” 6/2012. – 46 b.
- 5.6. Статистическое обозрение Узбекистана за 2009 год. T.: 2010. – 87 с.
- 5.7. Экономка Узбекистана: информационно-аналитический бюллетень. T.: 2010. – 69 с.
- 5.8. “O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi” tahliliy jurnali. 1/2013 – 43 b.
- 5.9. Rossiya statistik yilnomasi (2012) - 425-451 с.

6. Internet ma'lumotlari

www.ziyonet.uz

www.uzstat.ru

www.id-marketing.ru

www.levonevsky.org

www.rosstat.ru

<http://stop-vto.ru>

www.wto-inform.ru

<http://opec.ru/1433262.html>

<http://www.rian.ru/interview/20070424/64301500.html>

http://state.kremlin.ru/security_council/6752

<http://topwar.ru/16551-sergey-kurginyan-smysl-igry-doklad-o-vto.html>

ILOVALAR

1-ilova

O`zbekistonda qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, 2011-yil

	Donli va dukkakli ekinlar				
	Ekin maydoni, ming.ga	O`rilgan maydon, ming.ga	Yalpi hosil - dastlabki kirim qilingan vaznda		Hosildorlik, 1 ga. o`rilgan maydondan, sentner
			ming.t	2010-yilga nisb. %da.	
O`zbekiston Respublikasi	1607,4	1501,9	7140,1	95,9	45,8
Qoraqalpog`iston Respublikasi	74,3	74,0	199,5	81,9	26,5
viloyatlar:					
Andijon	93,9	93,9	618,4	101,6	62,5
Buxoro	92,6	92,6	622,6	100,4	60,0
Jizzax	216,6	206,5	484,6	91,9	22,9
Qashqadaryo	240,0	187,5	850,7	85,4	45,3
Navoiy	51,1	49,0	252,7	102,2	48,9
Namangan	95,1	95,1	492,7	100,1	48,6
Samarqand	180,4	141,8	796,1	99,1	56,1
Surxondaryo	116,4	116,4	614,0	97,5	50,4
Sirdaryo	100,2	100,2	478,7	103,8	45,5
Toshkent	155,9	154,0	680,9	94,1	42,6
Farg`ona	131,2	131,2	761,0	100,2	57,8
Xorazm	59,7	59,7	288,2	86,3	45,0

Manba: O`zbekiston Respublikasining 2012-yil statistik axborotnomasi

O`zbekiston qishloq xo`jaligida kartoshka yetishtirish, 2011-yil

	Kartoshka				
	Ekin maydoni, ming.ga	O`rilgan maydon, ming.ga	Yalpi yig`im		Hosildorlik, 1 ga. o`rilgan maydondan, sentner
			Ming t.	2010-yilga nisb. %da	
O`zbekiston Respublikasi	73,6	73,1	1862,4	110,0	196,0
Qoraqalpog`iston Respublikasi	4,6	4,3	32,9	112,7	75,7
viloyatlar:					
Andijon	5,6	5,6	179,9	106,2	194,3
Buxoro	3,9	3,9	128,2	111,3	237,7
Jizzax	1,6	1,6	43,3	113,0	183,1
Qashqadaryo	6,4	6,4	112,0	114,6	175,3
Navoiy	1,3	1,3	45,8	107,2	268,5
Namangan	6,5	6,5	167,0	109,3	179,3
Samarqand	10,7	10,7	409,1	110,1	276,6
Surxondaryo	9,2	9,2	145,1	113,8	151,8
Sirdaryo	1,7	1,7	30,9	107,1	132,3
Toshkent	8,1	8,1	291,2	108,3	228,5
Farg`ona	8,5	8,5	189,0	111,1	206,3
Xorazm	5,5	5,3	88,0	109,3	165,7

Manba: O`zbekiston Respublikasining 2012-yil statistik axborotnomasi

Dunyoning ba'zi mamlakatlarida donli va dukkakli ekinlar hosildorligi, st/ga

	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010
<u>Rossiya</u>	15,6	18,5	18,9	19,8	23,8	22,7	18,3
<u>Germaniya</u>	63,8	66,3	64,1	61,3	70,7	71,5	66,6
<u>Ispaniya</u>	34,4	20,3	29,4	38,2	35,1	28,4	30,9
<u>Italiya</u>	49,3	52,9	52,4	51	52,8	49,6	53,5
<u>Hindiston</u>	20,4	20,8	21	21,9	22,9	22,3	21,2
<u>Qozog'iston</u>	9,4	10	11,7	13,3	10,1	12,6	8
<u>Qirg'iziston</u>	26,4	26,3	24,8	24,3	23,2	29,3	25,3
<u>Xitoy</u>	46,3	50,8	51,9	51,9	54,2	53,3	54
<u>Yaponiya</u>	61,4	60,6	57,7	59,8	61,7	58,2	57,6
<u>misr</u>	70,7	73,9	73,6	72,7	73,4	70,5	64,1
<u>Marokko</u>	3,6	7,6	16	5,1	9,7	18,4	14,9
<u>Nigeriya</u>	10,7	12,8	13,5	12,5	14,2	14,3	13,3
<u>Braziliya</u>	22,6	25,4	27,8	31,1	33,8	30,7	35,6
<u>Kanada</u>	27	30,6	29	28,1	32,1	31	31,9
<u>Meksika</u>	24,8	28,2	28,5	30	31	31,2	31
<u>AQSH</u>	58	63,6	62,9	66,2	65,4	71,3	68,6
<u>Avstraliya</u>	18,5	20,5	10,2	12,1	16,5	16,6	16,7

Manba: Rossiya Federatsiyasi Statistika Qo`mitasi ma'lumotlari, 2011